YANGI HAYOT UCHUN, YANGI O‘ZBEKISTON UCHUN!

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 152 (941), 2023-yil 2-avgust, chorshanba

www.yuz.uz | yuz.uznews | yuz_official | yuz.uz_news

## GEOLOGIYA TARMOQLARIDAGI QO‘SHIMCHA IMKONIYATLAR KO‘RSATIB O‘TILDI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev 1-avgust kuni foydali qazilmalar zaxirasi va ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirishga oid taqdimot bilan tanishdi.**

Mamlakatimizda geologiya sohasiga katta e’tibor qaratilib, zamonaviy texnologiyalar joriy qilingani natijasida yerosti boyliklarini aniqlash ko‘lami kengaydi. Ularni qazib olish va qayta ishlash loyihalariga xorijiy investitsiyalar kirib kelmoqda.

Xususan, so‘nggi olti yilda kaolinni qayta ishlash bo‘yicha 148 million dollarlik 15 ta yangi loyihalar ishga tushgan. Natijada tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmi qariyb 2 barobar ko‘payib, eksport 65 million dollarga yetgan. Shu davrda ko‘mir qazib chiqarish hajmi 1,4 barobar oshib, 5,4 million tonnaga yetgan.

Taqdimotda shu sohadagi, jumladan, ko‘mir, kaolin va uran hajmini oshirishga qaratilgan rejalar haqida axborot berildi.

Qayd etilganidek, bu yil 6,7 million tonna ko‘mir qazib olish rejalashtirilgan.

Kaolin bo‘yicha qiymati 620 million dollarlik 33 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Undan yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish hisobiga joriy yilda eksportni 81 million dollarga, 2030-yilga borib 180 million dollarga yetkazish mo‘ljallangan.

Shuningdek, uran zaxirasini o‘stirish bo‘yicha xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda geologiya-qidiruv ishlari davom ettiriladi.

Davlatimiz rahbari mutasaddilarga bu yo‘nalishlarda natijadorlikni yanada oshirish imkoniyatlarini ko‘rsatib o‘tdi. Mavjud xomashyo bazasi, noyob texnologiyalar va kadrlar salohiyatidan unumli foydalanib, mahsulotlar hajmini ko‘paytirish vazifasi qo‘yildi.

Surxondaryodagi toshko‘mir bo‘yicha 5 ta istiqbolli maydonni xususiy sektorga berib, geologiya-qidiruv ishlarini jadallashtirish, Angrenda qazib olinadigan ko‘mir sifatini yaxshilash va saralash texnologiyalarini joriy etishga doir ko‘rsatma berildi.

Yangi kaolin konlarini topish va oq kaolin zaxirasini 200 million tonnaga yetkazish, uni qayta ishlash loyihalarini ko‘paytirish zarurligi ta’kidlandi.

Gidrotermal va qora slanesli uran konlarini o‘zlashtirishga xorijiy investorlar jalb qilinishi belgilandi.

**O‘zA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
QARORI

## KOREYA EKSPORT-IMPORT BANKI BILAN HAMKORLIKDA “HUDUDIY TIBBIYOT MUASSASALARINI TIBBIY ASBOB-USKUNALAR BILAN JIHOZLASH” LOYIHASINI AMALGA OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

Aholining kafolatlangan va sifatli tibbiy yordam olish imkoniyatini kengaytirish, hududiy tibbiyot muassasalarida ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlar ko‘lami va sifatini oshirish, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida:

**1.** Quyidagilar:

Koreya Respublikasi Hukumati tomonidan “Hududiy tibbiyot muassasalarini tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlash” loyihasini (keyingi o‘rinlarda — Loyiha) amalga oshirish uchun Koreya eksport-import bankining Iqtisodiy rivojlanish va hamkorlik jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda — IRH jamg‘armasi)dan O‘zbekiston Respublikasiga **10 yil imtiyozli davr bilan 40 yil muddatga jami 74 million AQSH dollari ekvivalentidagi Koreya vonida imtiyozli qarz** ajratilishi ma’qullanganligi;

**Loyihaning umumiy qiymati 88,78 million AQSH dollarini**, jumladan, 74 million AQSH dollari qarz mablag‘lari hamda **14,78 million AQSH dollari** soliq va bojxona to‘lovlari bo‘yicha imtiyozlar berish shaklida O‘zbekiston Respublikasining Loyihani amalga oshirishdagi ulushini tashkil etishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

**2.** Belgilansinki:

Sog‘liqni saqlash vazirligi Loyihani o‘z vaqtida amalga oshirish, uni muvofiqlashtirish, shuningdek, IRH jamg‘armasining qarz mablag‘laridan **maqsadli va samarali foydalanish bo‘yicha** mas’ul ijro etuvchi organ hisoblanadi;

“O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” AJ IRH jamg‘armasining qarz mablag‘lari bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish borasida **moliyaviy agent** hisoblanadi;

Davomi 2-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
QARORI

## OTORINOLARINGOLOGIYA XIZMATINI TAKOMILLASHTIRISH VA UNING KO‘LAMINI KENGAYTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

Otorinolaringologiya sohasida tibbiy yordam ko‘rsatish sifatini yaxshilash, aholining ehtiyojmand qatlamlariga yuqori malakali ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlar ko‘lamini kengaytirish, sohadagi nodavlat tibbiyot tashkilotlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, davlat muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, tibbiy kadrlarni tayyorlash va ilm-fanni rivojlantirish maqsadida:

**1.** Sog‘liqni saqlash vazirligi hamda O‘zbekiston otorinolaringologiya va bosh-bo‘yin jarrohligi assotsiasiyasining **2023-yil 1-sentyabrdan** yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan **Respublika ixtisoslashtirilgan otorinolaringologiya va bosh-bo‘yin kasalliklari ilmiy-amaliy tibbiyot markazini** (keyingi o‘rinlarda — Markaz) tashkil qilish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

**2.** Belgilab qo‘yilsinki:

**a)** Markaz:

otorinolaringologiya yo‘nalishidagi ishlarni **muvofiqlashtiradi** hamda **“Markaz — hududiy tibbiyot muassasalari — tuman (shahar) tibbiyot muassasalari”** tizimi asosida o‘z faoliyatini tashkil etadi;

otorinolaringologik va bosh-bo‘yin kasalliklari sohasida **ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam** ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yadi, ushbu yo‘nalishlarda mutaxassislarni o‘qitish va ularning ko‘nikmalarini rivojlantirish choralarini ko‘radi hamda ilmiy maktabni shakllantiradi;

**hududlarda** otorinolaringologik va bosh-bo‘yin kasalliklarini tashxislash va davolashning zamonaviy usullarini amaliyotga joriy etadi hamda yuqori texnologik amaliyotlar ko‘lamini kengaytiradi;

sog‘liqni saqlash tizimining **birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida** otorinolaringologik va bosh-bo‘yin kasalliklari **profilaktikasi**, ularni **erta aniqlash va davolash dasturlarini** amaliyotga joriy etadi;

**nodavlat tibbiyot tashkilotlari bilan hamkorlikda** otorinolaringologik va bosh-bo‘yin kasalliklarini davolashning zamonaviy va **yuqori texnologik usullarini** davlat va nodavlat tibbiyot tashkilotlari amaliyotiga joriy etadi;

Davomi 2-betda

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 32 yilligiga

## ODAMLAR FAQAT YAXSHI YASHASHGA INTILMOQDA

### chunki dunyoqarash, hayotga munosabat o‘zgardi

**Uzoq yillik hayot tajribamda ko‘plab siyosiy jarayonlar va turli darajadagi saylovlarni ko‘rganman. Shu yil 9-iyul kuni mamlakatimizda Prezident saylovi mutlaq o‘zgacha ruh va yangicha qarashlar bilan o‘tdi, desam mubolag‘a emas. Chunki bugungi xalqimiz kechagisidan farq qiladi. Bir vaqtlar nomigagina saylovda qatnashib, hatto kim uchun ovoz berganini bilmagan, his etmagan davrlarni ham kuzatdik.**

Davomi 3-betda



MUTAXASSIS MINBARI

## TA’LIMGA YO‘NALTIRILGAN SARMOYA

### farovonlikka erishishning eng to‘g‘ri va samarali yo‘lidir

**Bugun biz faol investitsiya, barqaror iqtisodiyot, inson kapitali haqida ko‘p gapiryapmiz. Zamonaviy dunyoda taraqqiyot uchun muhim bu uch yo‘lning oxiri bir nuqtaga borib tutashishi ayon bo‘lib qolmoqda. Bu — bilim. Bunday deyishimizga arzirli sabablar bor. Aytaylik, bundan 20-25 yil oldin investorlar arzon ishchi kuchi bo‘lgan mamlakatlarga sarmoya kiritgan, shu mamlakatda ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yib, arzon ishchi kuchi bilan arzon mahsulot ishlab chiqarib, boshqa davlatlarga sotgan. Hozir unday emas. Aqlli investorlar endi intellektual salohiyatli kadrlarga ega mamlakatlargagina investitsiya kiritish harakatiga tushgan. Buning sababi nimada?**



Investorlar davlatning o‘ziga borib mablag‘ sarflagandan ko‘ra, endi yuksak aql egalarini o‘z davlatiga olib kelishga harakat qilmoqda. Chunki insoniyat sun’iy intellekt yordamida erishayotgan oxirgi yutuqlar keyingi davrda bilimga yo‘naltiriladigan sarmoya inson kapitali darajasi qanday bo‘lishini bugun belgilab beryapti. Sababi, sun’iy intellekt kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Buning ajablanarli joyi yo‘q. Chunki “aqlli” qurilmalarning 80 foizi sun’iy intellektning qaysidir jihatini o‘zida mujassam etgan. Odamlarning 77 foizi sun’iy intellektga asoslangan yechimlardan foydalanadi. Bundan tashqari, moliyaviy hisobotlarda aytilishicha, biz sun’iy intellekt inqilobi markazida turibmiz. 2026-yilga borib SI global bozori 39,7 foiz, CAGR 309,6 milliard dollargacha o‘sishi prognoz qilinmoqda.

Davomi 5-betda

NUQTAYI NAZAR



## ENERGETIKA

### bozor munosabatlariga o‘tishning zarurati va ahamiyati nechog‘liq?

**Bugun kundalik hayotimizni elektr energiyasisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Muayyan sabablar tufayli elektr ta’minoti tizimida kuzatiladigan qisqa muddatli uzilish ham faoliyatimiz to‘xtashiga sabab bo‘ladi. Chunki har bir ishning sifati va muddati bevosita elektr ta’minoti tizimi barqarorligiga bog‘liq. Aholi farovonligi ortib borishi, son va sifat jihatidan ko‘payayotgan maishiy texnika elektr energiyasi iste’molini oshirmoqda.**

Davomi 4-betda

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
QARORI

# KOREYA EKSPORT-IMPORT BANKI BILAN HAMKORLIKDA “HUDUDIY TIBBIYOT MUASSASALARINI TIBBIY ASBOB-USKUNALAR BILAN JIHOZLASH” LOYIHASINI AMALGA OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

Boshlanishi 1-betda

IRH jamg‘armasining **qarz mablag‘larini qaytarish**, shu jumladan, **qo‘shimcha haq va foizlar**, **boshqa to‘lovlar** bilan bog‘liq xarajatlar O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjeti mablag‘lari hisobidan qoplanadi;

Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi “O‘zmedimpeks” davlat muassasasi Loyihani amalga oshirish doirasida **tender komissiyasining ishchi organi va tuzilgan shartnomalar bo‘yicha kontragent** hisoblanadi;

Loyihani amalga oshirish doirasida xarid qilinadigan va olib kiriladigan tovarlarga (xizmatlarga) to‘lanishi lozim bo‘lgan **qo‘shilgan qiymat solig‘i Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan** to‘lanadi. Bunda, soliq va bojxona imtiyozlari qo‘llanishi yoki byudjet mablag‘lari hisobidan to‘lab berilishi natijasida iqtisod qilingan mablag‘lar O‘zbekiston Respublikasining Loyihani amalga oshirishga qo‘shgan ulushi sifatida hisobga olinadi.

**3.** Quyidagilar:

“Hududiy tibbiyot muassasalarini tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlash” loyihasining **asosiy texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari 1-ilovaga** muvofiq;

“Hududiy tibbiyot muassasalarini tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlash” loyihasini amalga oshirish doirasida IRH jamg‘armasining qarz mablag‘larini qaytarish, shu jumladan, qo‘shimcha haq va foizlar to‘lashning **prognoz jadvali 2-ilovaga** muvofiq;

“Hududiy tibbiyot muassasalarini tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlash” loyihasi doirasida xarid qilinadigan tibbiy jihozlarning hududlar bo‘yicha taqsimoti **3, 3a–3n-ilovalarga muvofiq** tasdiqlansin.

**4.** Adliya vazirligi **bir oy muddatda** O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va Koreya Eksport-import banki o‘rtasida imzolangan **qarz bitimi bo‘yicha yuridik xulosa bersin**.

**5.** “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” AJga IRH jamg‘armasi qarzi bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun Koreya Respublikasining vakolatli banki bilan **banklararo shartnoma imzolash vakolati** berilsin.

**6.** Belgilansinki, Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tibbiyot muassasalarining ehtiyojlari hamda xatlov natijalari asosida **tibbiy asbob-uskunalarning ro‘yxati, miqdori va texnik tavsiflariga** o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin.

**7.** Sog‘liqni saqlash vazirligi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda Loyiha doirasida:

manfaatdor vazirlik va idoralarga zarur hisobot va hujjatlar IRH jamg‘armasining talablari hamda O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq o‘z vaqtida tayyorlanishi va taqdim etilishini;

Loyihani amalga oshirish davrida Loyihaga jalb qilinishi ko‘zda tutilgan tibbiyot muassasalarining samarali faoliyat olib borishini;

xarid qilinadigan tibbiy asbob-uskunalar hamda materiallar yetkazib berilguniga qadar tibbiyot muassasalarida **jihozlarni joylashtirish va o‘rnatish uchun tegishli binolar tayyorlanishini**;

tibbiyot xodimlarining yetkazib beriladigan tibbiy asbob-uskunalar hamda **zamonaviy texnologiyalar va axborot texnika vositalaridan foydalanish bo‘yicha** o‘qitilishini;

belgilangan tadbirlarni amalga oshirish uchun **zarur sharoitlarning yaratilishini** ta’minlasin.

**8.** Iqtisodiyot va moliya vazirligi:

Loyihani amalga oshirish davrida Sog‘liqni saqlash vazirligining so‘rovnomasiga asosan tovarlar va uskunalarni sotib olish, belgilangan manzilga yetkazib berish bo‘yicha xizmatlarni, shuningdek, Loyihani moliyalashtirish bo‘yicha boshqa xarajatlarni amalga oshirish uchun **Davlat byudjetidan zarur mablag‘lar** ajratsin;

Loyihani moliyalashtirish uchun 2024-yildan boshlab zarur mablag‘larning **Davlat byudjeti parametrlarida** ko‘zda tutilishini ta’minlasin.

**9.** Hisob palatasi Loyiha doirasida jalb etiladigan va ajratiladigan mablag‘lardan samarali foydalanilishi, shuningdek, Loyihaning texnik-iqtisodiy asoslarida ko‘zda tutilgan ko‘rsatkichlarga erishilishi yuzasidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

**10.** Tashqi ishlar vazirligi Sog‘liqni saqlash vazirligining viza talabnomalariga binoan mazkur Loyihani amalga oshirish doirasida jalb qilinadigan xorijiy mutaxassislar uchun kirish vizalari konsullik yig‘imlari va boshqa haqiqiy xarajatlarning o‘rnini qoplash hisobidan yig‘imlar undirilmasdan rasmiylashtirilishini ta’minlasin.

**11.** Ichki ishlar vazirligi Sog‘liqni saqlash vazirligi buyurtmasiga asosan Loyihani amalga oshirish uchun jalb qilinadigan xorijiy mutaxassislarga ko‘p martalik viza muddatlari uzaytirilishini, shuningdek, vaqtincha turar joyi bo‘yicha ro‘yxatga olinishini va uning muddati uzaytirilishini ta’minlasin.

**12.** Mazkur qaror ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib sog‘liqni saqlash vaziri A.Sh.Inoyatov belgilansin.

Qaror ijr\osini nazorat qilish va ijro uchun mas’ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N.Aripov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisining birinchi o‘rinbosari L.N.Tuychiyev zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti** **Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2023-yil 31-iyul

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
QARORI

# OTORINOLARINGOLOGIYA XIZMATINI TAKOMILLASHTIRISH VA UNING KO‘LAMINI KENGAYTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

Boshlanishi 1-betda

**b) 2024/2025-o‘quv yilidan boshlab** Markazda otorinolaringologiya ixtisosligi bo‘yicha tibbiyot kadrlarini **klinik ordinatura** orqali tayyorlash tashkil qilinadi;

**v)** Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazlarining otorinolaringologiya bo‘limlari Markazning yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan **hududiy filiallari** hisoblanadi.

Markaz va uning hududiy filiallari tibbiyot yo‘nalishidagi oliy, professional va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarining tegishli kafedralari uchun **klinik baza** sifatida faoliyat yuritadi.

**3.** Markaz faoliyatini **moliyalashtirish manbalari** etib quyidagilar belgilansin:

Davlat byudjetidan ajratiladigan mablag‘lar;

ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlarini amalga oshirish doirasidagi grantlar;

pullik xizmatlar ko‘rsatishdan tushadigan mablag‘lar;

qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

**4.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-iyuldagi “Sog‘liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–5199-son qaroriga muvofiq, imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarni davolash uchun ixtisoslashtirilgan muassasalarni Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi bilan tuzilgan shartnomalar asosida bazaviy narxlarda moliyalashtirish tartibi Markaz uchun **2024-yil 1-yanvardan boshlab** tatbiq etilsin.

**5.** Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq **2024-yil 1-yanvardan boshlab** otorinolaringologiya va yuz-jag‘ jarrohligi yo‘nalishlaridagi tibbiy xizmatlar imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarga Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan nodavlat tibbiyot tashkilotlari tomonidan ko‘rsatilishiga ruxsat beriladi.

**6. 2023-2026-yillarda otorinolaringologiya xizmatini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi** (keyingi o‘rinlarda — Dastur) 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Sog‘liqni saqlash vazirligi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda Dasturda nazarda tutilgan tadbirlarning o‘z vaqtida, sifatli va to‘liq bajarilishini ta’minlasin hamda Dastur ijrosi yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritib borsin.

**7.** Sog‘liqni saqlash vazirligi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda:

**a)** Koreya Eksimbanki Iqtisodiy rivojlanish va hamkorlik jamg‘armasi (EDCF) hisobidan 2023-2024-yillarda tuman (shahar) ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikalarini, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazlari, Toshkent shahar shifoxonalarining otorinolaringologiya bo‘limlari va tibbiyot oliy ta’lim muassasalari klinikalarini, Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi va uning hududiy filiallarini 2-ilovaga muvofiq **zarur tibbiy uskunalar bilan jihozlash** uchun **17 million AQSH dollarini** yo‘naltirsin;

**b)** 2024-2025-yillarda Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan quyidagi tadbirlarni amalga oshirish uchun **8,6 million AQSH dollarini** yo‘naltirish choralarini ko‘rsin:

Markazda “Yuqori nafas yo‘llari a’zolari fiziologiyasi va patologiyasi”, “Eshitish va muvozanat a’zolari fiziologiyasi va patologiyasi”, “Foniatriya va ronxopatiya” ilmiy laboratoriyalarini, simulyatsion amaliy laboratoriyani, **5 ta** jarrohlik blokini va **60 ta** o‘rin-joylarni zamonaviy tibbiy uskunalar bilan jihozlash;

Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida “Eshitish zaiflashuvini tashxislash, davolash va reabilitatsiya muammolari” **ilmiy laboratoriyasini** tashkil etish;

Toshkent tibbiyot akademiyasi ko‘p tarmoqli klinikasi va Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazini zamonaviy tibbiy uskunalar bilan jihozlash.

**8.** Belgilansinki, 2024-yildan boshlab:

Sog‘liqni saqlash vazirligining asoslangan hisob-kitoblariga binoan audioskrining natijasi bo‘yicha aniqlangan zaif eshitadigan bolalarni koxlear implantatsiya amaliyotiga tayyorgarlik davrida Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan qo‘shimcha yiliga kamida **2 000 ta raqamli eshitish moslamalari bilan ta’minlash yo‘lga qo‘yiladi**;

Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasining vaqtincha qisqartiriladigan o‘rin-joylari va shtat birliklari hisobidan Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi va uning hududiy filiallari qabul-diagnostika bo‘limida tunu kun xizmat ko‘rsatadigan qo‘shimcha **otorinolaringolog va yuz-jag‘ jarrohi shtat birliklari kiritiladi**.

**9.** Sog‘liqni saqlash vazirligi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bilan birgalikda otorinolaringologiya bo‘yicha ambulator va statsionar sharoitda yordam ko‘rsatuvchi davlat tibbiyot muassasalari uchun shtat normativlarini qayta ko‘rib chiqish hamda kelgusida ehtiyojdan kelib chiqib ularga o‘zgartirishlar kiritib borish choralarini ko‘rsin.

**10.** Iqtisodiyot va moliya vazirligi Sog‘liqni saqlash vazirligining asoslangan hisob-kitoblariga binoan ushbu qarorda belgilangan tadbirlarni amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlar 2024-yildan boshlab Davlat byudjeti parametrlarida nazarda tutilishini ta’minlasin.

**11.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-iyuldagi “Sog‘liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–5199-son qarori 1-bandining “b” kichik bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“b) quyidagilar:

2021-yil 1-noyabrdan ko‘z mikroxirurgiyasi va urologiya;

2022-yil 1-yanvardan kardiologiya, travmatologiya va ortopediya hamda akusherlik va ginekologiya;

2022-yil 1-iyuldan xirurgiya va neyroxirurgiya;

2024-yil 1-yanvardan otorinolaringologiya va yuz-jag‘ kasalliklari yo‘nalishlaridagi tibbiy xizmatlar imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarga Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan nodavlat tibbiyot tashkilotlari tomonidan ko‘rsatilishiga ruxsat berilsin”.

**12.** Markaz Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Maxtumquli ko‘chasi, 103-uy manzilida yangidan barpo qilinayotgan ko‘p tarmoqli klinika bino va inshootlarining bir qismiga tekin foydalanish huquqi asosida joylashtirilsin.

**13.** Sog‘liqni saqlash vazirligi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi bilan birgalikda 2023-yilda Davlat byudjetidan Sog‘liqni saqlash vazirligiga ajratilgan mablag‘lar hisobidan Markazda rekonstruksiya va jihozlash ishlarini amalga oshirish choralarini ko‘rsin.

**14.** Sog‘liqni saqlash vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

**15.** Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib sog‘liqni saqlash vaziri A.Sh.Inoyatov belgilansin.

Qaror ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas’ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisining birinchi o‘rinbosari L.N.Tuychiyev zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti** **Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2023-yil 1-avgust

E’TIROF

# MADANIY ISLOHOTLAR IN’IKOSI

**Mamlakat imijining yuksalishida, uning dunyo hamjamiyati tomonidan e’tirof etilishida madaniyat va san’at sohasi ham alohida ahamiyat kasb etadi.**

Prezidentimizning yaqinda e’lon qilingan “Ma’muriy islohotlar doirasida madaniyat va turizm sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni madaniyat sohasidagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish, soha vakillari zimmasidagi mas’uliyatni yanada oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur farmonda madaniyat va san’at sohasi ta’limini tizimli isloh qilish, milliy musiqa va teatr san’ati, ilmiy tadqiqot ishlari va ijrochilik mahoratining yangi tizimini joriy qilish maqsadida muhim chora-tadbirlar belgilandi. Jumladan, milliy musiqa san’ati yo‘nalishida ta’lim va ilmiy tadqiqot ishlarini yanada takomillashtirish alohida qayd etildi.

Ijrochilik mahorati maktablarining yaxlit tizimini joriy etish, bastakorlar, hofiz va sozandalar, baxshichilik san’ati vakillarining noyob asarlari notalashtirilishi, ta’lim jarayonining uzluksizligi va uzviyligi ta’minlanib, nazariy va amaliy bilimlarni integratsiya qilish orqali maqom, baxshi va doston ijrochiligi yo‘nalishlarida iste’dodli yoshlar seleksiyasini amalga oshirish kabi vazifalar san’at va madaniyat sohasi pedagogikasining yuksalishida muhim omil bo‘lib xizmat qilishi shubhasiz.

Sohada muntazam amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini ijodkor yoshlarning xalqaro maydonda erishayotgan qator yutuqlari misolida ham ko‘rish mumkin. Yoshlarning o‘z iste’dodini yanada shakllantirish va namoyon etishida, avvalo, ustoz ziyolilar, san’atkor pedagoglarning mehnatini e’tirof etish o‘rinlidir. Zotan, o‘zining hayoti va sermahsul ijodi bilan yoshlarga o‘rnak bo‘lib kelayotgan ustoz ijodkorlardan qancha ibrat olinsa kam. Ularning mehnatini qadrlash, faoliyatini munosib e’tirof etish esa sohaning muntazam rivojlanib borishida o‘ta muhim.

Mazkur tizimli islohotlar in’ikosi O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida tashkil etilgan navbatdagi tadbirda ham aks etdi. Shu kuni Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan madaniyat va san’at sohasi rivojiga ulkan hissa qo‘shib kelayotgan bir guruh ustozlar ilmiy unvonlar bilan taqdirlandi. Professor ilmiy unvoni bilan taqdirlanganlar safidan san’atimiz rivojiga o‘zining uzluksiz mehnati, ijodi va ilmiy salohiyati bilan hissa qo‘shayotgan hamda o‘z faoliyati bilan namuna bo‘lib kelayotgan ustozlar o‘rin oldi.

Ozodbek Nazarbekov, Gavhar Matyoqubova, Farrux Zokirov, Zamira Suyunova, Gavhar Zokirova, Mirxalil Mahmudov, Usmonqul Azimov, Alisher Ikromov, Soyibjon Niyozov, Omonilla Rizayev, Erkinboy Ro‘zmatov, Orolmirzo Safarov va boshqa ko‘plab el ardog‘idagi insonlarning ushbu ro‘yxatdan joy olgani san’at sohasi vakillarini, ijodkor ziyolilarni, ustozlardan ibrat olib kelayotgan barcha yosh ijodkorlarni birdek mamnun etdi.

Bugun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan qizg‘in islohotlar san’at va madaniyat sohasi vakillarini ham to‘lqinlantirishi shubhasiz. Darhaqiqat, madaniyat va san’at jamiyatning ilg‘or fikrli bo‘lishi, yaratuvchanlikka intilishi, insonlarning yaxshilik va ezgulikka esh bo‘lishiga



ta’sir etuvchi katta kuchdir. Madaniy islohotlarning amalga oshishida sohaga qalb qo‘rini bag‘ishlagan ustozlar biz uchun hamisha qadrlidir.

— Bugungi kunda madaniyat va san’at olamidagi o‘zgarishlar nihoyatda jadal. Sohada ko‘plab iqtidorli yoshlar yetishib chiqayotgani va ular nafaqat yurtimiz, shuningdek, jahon san’ati sahnalarida ham muvaffaqiyat qozonayotgani bizni mamnun etadi. Bu, avvalo, ularga ta’lim berayotgan yetuk mutaxassislar, pedagoglar jamoasining mehnatlari samarasidir, — deydi O‘zbekiston xalq artisti Farrux Zokirov.

Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dotsent ilmiy unvoni ham munosib egalariga topshirildi. Bu qatorda Jahongir Qosimov, Hilol Nasimov, Yolqin To‘ychiyev Ashurali Jo‘rayev, Kamoliddin O‘rinboyev, Kozim Qayumov, Qo‘chqor Norqobilov, Qursiya Esanova, Hamidullo Hasanov, Hurriyat Isroilova, Gulgina Zokirova, Sharapatdin Paxratdinov kabi taniqli ijodkorlar bor.

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti respublikamizda ta’limning an’anaviy va innovatsion uslublarini mohirona qo‘llab kelayotgan, ilmiy salohiyati yildan-yilga o‘sib borayotgan yetakchi oliy ta’lim muassasalaridan biri sifatida e’tirof etib kelinadi. Mamlakatimiz madaniyat va san’at sohasi rivojiga munosib hissa qo‘shishda institut professor-o‘qituvchilari, tadqiqotchi olimlar va ijodkor yoshlar doim yelkadosh va hammaslakdir.

**Eldor ShERMANOV,**
**O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti rektori v.b.**




**O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 32 yilligiga**

# ODAMLAR FAQAT YAXSHI YASHASHGA INTILMOQDA

## chunki dunyoqarash, hayotga munosabat o‘zgardi



**Ikromxon NAJMIDDINOV, “Nuroniy” jamg‘armasi Namangan viloyati bo‘limi raisi, Oliy Majlis Senati a’zosi**

Boshlanishi 1-betda

Joriy yilgi saylovga har tomonlama puxta tayyorgarlik ko‘rildi. Prezidentlikka nomzod Shavkat Mirziyoyevning Namangan viloyatidagi ishonchli vakili sifatida saylovchilar bilan uchrashar ekanman, yurtdoshlarimizning o‘z hayotidan rozi, shukronalikda yashayotganining guvohi bo‘ldim. Odamlar dunyoqarashi tamomila o‘zgargani, huquq va burchlarini tushunib yetgani, yangi O‘zbekistonimiz kelajagi va xalqimiz baxtu saodatiga befarq emasligiga ishondim.

Masalan, Namangan tumanida istiqomat qilayotgan 106 yoshli Ibrohim ota Hojiyevning, Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi, Yangiqo‘rg‘on tumani Poromon qishlog‘ida yashovchi 101 yoshli Muhammadibrohim ota Inomovning teran fikrlari, o‘tmishdagi og‘ir va mashaqqatli kunlar, hozirgi davrdagi tinchlik-osoyishtalik, to‘kin-sochinlik, xalqimiz turmush sharoiti tobora yaxshilanayotgani haqidagi samimiy dil so‘zlari qalbimizga mamnunlik, xotirjamlik bag‘ishladi. Prezidentimiz chet davlatlarga tashrifi chog‘ida ham xorijlik ishbilarmon doira vakillari bilan uchrashuvlari, mamlakatimizga investitsiya jalb etishdagi faol sa’y-harakatlarini ko‘pni ko‘rgan nuroniylardan eshitish zavqli, ularning daxldorlik tuyg‘usiga havas qilsa arziydi.

Darvoqe, bir vaqtlar ilg‘orlarni taqdirlash, mukofotlashga juda boshimiz qotgani esimda. Ularga uyimizdagi eski gilamlarni yoki kolxoz omborida qolgan-qutgan arzimas buyumlarni berib, mukofotlagan kunlarimiz bo‘lgan. Bugun-chi? Bugun tadbirkorlarga qanchadan-qancha imtiyozlar, katta-katta mukofotlar berilmoqda. Buni ham qo‘ya turing. Faol, namunali kitobxonlarga Prezident sovg‘asi — avtomobil taqdim etilayotganini ayting! Dunyodagi biror davlatda bunaqasi yo‘q.

Mehnat jamoalarida uyushtirilgan saylovoldi uchrashuvlarda xalqimiz o‘tgan olti yildagi tub ijobiy islohotlardan minnatdor ekanini alohida e’tirof etdi. Bir vaqtlar faqat Namangan viloyati markazida 5-6 qavatli sanoqli uylar mavjud bo‘lgani holda, hozir eng chekka qishloq va mahallalarda ham baland-baland zamonaviy turar joylar qurilyapti. Bu esa uy-joy muammosini hal qilishda salmoqli ahamiyatga egadir. Mazkur xonadonlarning 20-30 foizi kam ta’minlangan, “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”dagi ehtiyojmandlarga, nogironligi bo‘lgan shaxslarga imtiyozli taqdim etilayotgani tarixda bo‘lgan emas. Imkoniyati cheklangan bo‘lsa-da, sportda, ilmda, fan olimpiadalarida yuqori natijalarga erishgan iqtidorli yoshlarimizga yangi uylar kaliti topshirilayotgani esa diyorimizdagi insonparvarlik tamoyilining yorqin isbotidir.

Keyingi yillarda respublikamizda korxonalar soni ikki barobar ortib, 800 mingdan ziyod tadbirkor faoliyat yuritmoqda. Bugun viloyatimizdagi har bir mahallada o‘nlab (xususiy, oilaviy, yakka tartibdagi) katta-kichik korxonalar paydo bo‘lib, aholining katta qismi tadbirkorlikdan daromad topmoqda. Daromaddan olinadigan soliq yuki sezilarli kamaytirildi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i 12 foizga tushirildi.

Kredit hajmini oshirish, foizini tushirish tadbirkorlar kutayotgan yangilik edi. Prezidentimizning kelgusi 7 yilga mo‘ljallangan Saylovoldi dasturida chet el banklarini yurtimizga olib kirish, yangi xususiy banklar ochishni rag‘batlantirish hamda depozitlarni kengaytirish hisobiga kreditlar uchun resurs bazasini ko‘tarish ko‘zda tutilgan. Har bir tumanda kamida 1000 ish o‘rni yaratadigan 2 tadan yangi sanoat zonasi tashkil etiladi. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini qaytarish shartlari 15 tadan 5 taga qisqartiriladi.

Bir paytlar tadbirkorlarimiz faoliyat boshlash uchun moliyaviy ko‘mak olish maqsadida banklar eshigida kunlab, oylab sarg‘ayardi. Endi tadbirkorlikni rivojlantirish uchun shunday sharoit yaratilganki, bank xodimlari bilan birgalikda barcha darajadagi rahbarlarimiz mahallalarda, xonadonlarda bo‘lib, ishbilarmonlarga har tomonlama yordamlashmoqda.

Moliyaviy yetishmovchiliklar, naqd pul muammosi, plastik kartasidagi mablag‘larni naqdlashtirish nafaqat tadbirkorlarni, balki barcha kasb egalari, shu jumladan, pensioner nuroniylarni ham tashvishga solgan davrlar ortda qoldi. Bugun eng olis qishloq va mahallalarda ham bank shoxobchalari, tunu kun ishlaydigan bankomatlar elimiz xizmatida. Ajratilayotgan subsidiya, kredit va boshqa moliyaviy ko‘maklar faqat insonlar manfaati uchun, ularning hayotdan rozi bo‘lib yashashi uchun yo‘naltirilganini har birimiz to‘liq his qilyapmiz.

Bugun “Inson qadri uchun” tamoyili jazoni ijro etish muassasalariga ham kirib bordi. Yaqinda Pop tumanidagi shunday muassasada tashkil etilgan saylovoldi uchrashuv menda o‘zgacha taassurot uyg‘otdi. Prezidentimiz faoliyati va yaqin 7 yillik muddatda amalga oshiriladigan dasturni jazo muddatini o‘tayotgan shaxslar katta qiziqish bilan qabul qildi. Garchi, bilib-bilmay qilgan jinoyati uchun jazo o‘tayotgan bo‘lsa-da, ularning ko‘zlaridan o‘z Prezidentini saylashdek imkoniyat yaratilganidan benihoya xursandligini, o‘z navbatida, O‘zbekistonimizning ravnaqi va xalqimiz baxt-u saodati uchun xizmat qilishdek ezgu ishlardan qisman mahrum ekanidan o‘kinch alomatlarini ko‘rish mumkin edi.

Saylovchilar bilan muloqotlarda joylardagi mavjud kamchiliklar, xalqimizni ranjitayotgan holatlarni bartaraf etishga doir adolatli taklif va mulohazalar bildirildi. Uchqo‘rg‘on tumani “Sanoat” MFY fuqarosi Mag‘firat Rahimova moddiy yordam so‘raganida shu yerning o‘zida tuman mutasaddilari masalaga ijobiy yechim topdi.



**BUGUNGI O‘ZBEKISTONIMIZ YANGI TARAQQIYOT CHO‘QQILARI TOMON INTILMOQDA, BU YO‘LDA BARCHAMIZ BIR YOQADAN BOSH CHIQARIB, HAMJIHATLIK VA FIDOYILIK KO‘RSATISH ORQALI OLDIMIZGA QO‘YILGAN BUYUK MAQSADLARGA ERISHAMIZ. IKKILANISH, QO‘RQUV VA UMIDSIZLIK BO‘LMASLIGI DARKOR, ENDI ORTGA QAYTISH YO‘Q, FAQAT OLG‘A YURAMIZ!**

Odamlar ichimlik suv ta’minoti, elektr tarmoqlarini yangilash, maktabgacha ta’lim va maktablar moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yo‘llarni shag‘allash, asfaltlash kabi masalalarni ochiq-oydin aytgani saylovoldi targ‘ibot jarayonining qanchalik shaffof tashkil etilganini namoyish etish barobarida Prezidentlikka eng munosib nomzodni tanlashda xalq ishonchini kuchaytirdi.

Joriy yil 14-iyul kuni Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senati qo‘shma yig‘ilishida qayta saylangan davlatimiz rahbari nutqini katta hayajon va diqqat bilan tinglar ekanman, O‘zbekiston kelajagi va xalqimizning baxtu iqboli ishonchli qo‘lda ekaniga yana bir bor amin bo‘ldim.

Tantanali yig‘ilishda bir olam taassurot, yangicha nazar va ulkan maqsadlar butun vujudimni qamrab olgandek edi go‘yo. Ertasigayoq Chortoq tumanidagi Oqterak mahallasida “Nuroniy” jamg‘armasi viloyat, tuman, shaharlardagi mas’ullari, faol nuroniylar, yoshlar vakillari ishtirokida ma’naviy tadbir uyushtirildi. Asosiy mavzu Prezidentimizning o‘z lavozimiga rasman kirishishiga bag‘ishlangan marosimda so‘zlagan tarixiy nutqi mazmun-mohiyati bo‘ldi. Ma’ruzaning mazmun-mohiyatini gapirib berar ekanman, jamiyatimizning turli qatlamlariga alohida-alohida murojaat etilgani, ayniqsa, nuroniylarga atalgan quyidagi qaydlarni g‘urur-iftixor bilan tilga oldim: **“Men bilan bir safda sizlardek aziz qadrdonlarim, duogo‘y otaxon va onaxonlarimiz, azamat aka-ukalarimiz, mehribon opa-singillarimiz, azmu shijoatli yoshlarimiz borligi menga bitmas-tuganmas kuch-g‘ayrat, ruh va ilhom beradi”.**

Tadbirda Chortoq tumani Damariq mahallasining “Keksalar maslahati” guruhi rahbari, birinchi darajali “Mehnat faxriysi” ko‘krak nishoni sohibi Abdullajon O‘rinboyev taassurotlari bilan o‘rtoqlashdi. Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibasi Shahzoda Abduhamidova, “Kitobxon – 2023” respublika ko‘rik-tanlovi g‘olibi, oilasiga “Spark” avtomobilini keltirgan Zamira Abdullayeva Prezident saylovida nuroniylar va yoshlarning har taraflama ibrat ko‘rsatgani hamda davlatimiz rahbari nutqidagi muhim jihatlarga qisqacha to‘xtaldi. Qizlarimizning hayajonli so‘zlarini eshitar ekanman, beixtiyor davlatimiz rahbarining farzandlarimizga qarata aytgan gapi qulog‘im ostida jarangladi: **“Yoshlik — g‘animat, vaqt — g‘animat, fursat borida otni qamchilang! Davlatimiz, xalqimiz yaratib berayotgan imkoniyatlarning qadriga yeting! Dunyoga o‘z so‘zingizni ayting! Izlanish va intilishdan aslo to‘xtamang!”**

Prezidentimizning o‘tgan davrdagi tegishli farmon va qarorlari nuroniylarni e’zozlash, orzu-istaklarini ro‘yobga chiqarish va ijtimoiy faolligini oshirishda keskin burilish davriga asos bo‘ldi.

Birgina joriy yilning olti oyida “Nuroniy” jamg‘armasi ko‘magi bilan viloyatimizdagi 243,5 ming nuroniyni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning niyat-maqsadlarini ro‘yobga chiqarish va ijtimoiy faolligini oshirish uchun talaygina ishlar bajarildi. Viloyat va tuman (shahar)lardagi 15 nafardan iborat Nuroniylar jamoatchilik kengashlari va 788 MFYdagi “Keksalar maslahati” guruhlari tarkibi qayta ko‘rib chiqildi hamda tajribali va tashabbuskor nuroniylar hisobiga mustahkamlandi. Shu yilning o‘tgan davrida nuroniylar ishtirokida 20 ming 650 dan ziyod ma’naviy-ma’rifiy va sport tadbiri tashkil etildi.

Bugun pir-u badavlatlarimiz ham zamon ruhi va shiddatiga mos ravishda yashamoqda. “Bir nuroniy o‘n yoshga mas’ul” tamoyiliga muvofiq, 788 mahalladagi 1666 nuroniyga 16 ming 660 uyushmagan va muammoli yosh, ijtimoiy muammosi bo‘lgan oilalarni biriktirgan holda tarbiyaviy ishlar va ma’naviy-ma’rifiy loyihalar, yakka tartibda suhbatlar o‘tkazildi. Pirovardida, bugungi kunga qadar 12 mingga yaqin yosh bekorchilikdan va yomon qilmishlardan qaytib, to‘g‘ri yo‘lga tushib oldi.

“Nuroniylar har bir oilaga mas’ul” loyihasi asosida muammoli 1228 oilaga ko‘pni ko‘rgan otaxonu onaxonlar biriktirilib, mavjud ijtimoiy muammolarni hal etish, oilalarni mustahkamlash choralari ko‘rildi. Targ‘ibot ishlari orqali hamkor tashkilotlar bilan ko‘plab masalalar ijrosiga ko‘maklashildi, 452 oila ajrashishining oldi olindi. Biriktirilgan oilalarning 651 tasi yoki 53 foizida ijtimoiy barqarorlik ta’minlandi. Jumladan, Pop tumani “Yangi to‘da” MFYda yashovchi I.Mamadaliyev oilasidagi kelishmovchilik “Keksalar maslahati” guruhi a’zolari aralashuvi bilan bartaraf etildi.

Nuroniylar jamoatchilik kengashi va mahallalardagi “Keksalar maslahati” guruhlari 25 mingta jamoatchilik nazorati tadbirlarini o‘tkazdi. Bunda asosiy e’tibor nuroniylarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, aholining ijtimoiy sohadagi muammolari, jumladan, oziq-ovqat va dori-darmon narxlari sun’iy oshishi va maktablarda o‘quvchilar davomati, tadbirkorlik faoliyati, bandlik, tomorqadan foydalanish, mavjud resurslar (tabiiy gaz, elektr energiyasi, ichimlik suv), “Yashil makon” umummilliy harakati doirasidagi ishlarga qaratildi. Jumladan, shu yil 2-iyunda Pop tumanidagi G‘urumsaroy qishlog‘ida transport xizmati ko‘rsatishdagi yo‘lkira haqi o‘rganildi. O‘rganish yakunlarini “G‘ulomjon lider-trans” AJ ta’sischisi Jasurbek G‘ulomov nazoratga olib, yo‘lkira bahosi 5 ming so‘mga tushirildi.

“Ikki til, bir kasb” tamoyili bo‘yicha yangi joriy etilgan uslubda yoshlarning hunar o‘rganishi va chet tilni o‘zlashtirishi qo‘llab-quvvatlandi. Namangan shahridagi 7-, Yangiqo‘rg‘on tumanidagi 10-umumta’lim maktablari tajribasini ommalashtirish rejasi ishlab chiqildi.

“Nuroniy” jamg‘armasi tashabbusi bilan Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi va boshqa manfaatdor idora, tashkilotlar hamkorligida joriy yilning 1-iyuligacha faxriy nuroniylar, o‘rta avlod vakillari hamda yoshlar ishtirokida 3381-marta “Uch avlod uchrashuvi” tadbiri tashkil etildi va 137,3 ming nuroniy, o‘rta avlod vakili hamda 210,7 ming yigit-qiz qamrab olindi. Tadbirlar saviyasi va ta’sirchanligini ta’minlash uchun “Nuroniy” jamg‘armasi respublika boshqaruvi tomonidan maqsadli mablag‘ (34 million so‘m) ajratildi. 23-iyun kuni Pop tumani “Mirishkor” MFYdagi harbiy qismdagi “Uch avlod uchrashuvi” ko‘tarinki ruhda uyushtirilgani bilan yodimizga muhrlandi. “Vatanni ardoqlaymiz” mavzusidagi mazkur ma’naviy tadbirda 45 nuroniy va o‘rta avlod vakillari, 150 dan ortiq yosh jamlandi.

Sport inshootlarida jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanayotgan, o‘zgalar parvarishiga muhtoj nuroniylarning 10,1 million so‘mlik xarajatlari jamg‘arma hisobidan qoplab berildi. Tuman (shahar) larda kasb-hunarga ega bo‘lmagan, ishsiz va uyushmagan yoshlar bilan faxrli yutuqlarni qo‘lga kiritgan sportchilar, fan olimpiadasi g‘oliblari hamda o‘zini o‘zi ish bilan band etgan nogironligi bo‘lgan fuqarolar “Matonat va jasorat” tadbirlariga jalb etildi. Kam ta’minlangan va ehtiyojmand nuroniylarga 86,4 million so‘mlik, faol faxriylarga esa 14,2 million so‘mlik moddiy yordam ko‘rsatildi va rag‘batlantirildi.

Ramazon oyi munosabati bilan kam ta’minlangan 403 nafar nuroniyga 40,3 million so‘mlik moddiy yordam ajratildi. Xotira va qadrlash kuni arafasida Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va ularga tenglashtirilgan keksalarning har biri moddiy rag‘batlantirildi. Joriy yil boshidan ayni paytgacha 42 ming 830 nuroniy viloyatimiz va O‘zbekistonning tarixiy shaharlariga sayohatga bordi. “Nuroniy” jamg‘armasi mablag‘i evaziga o‘zgalar parvarishiga muhtoj va yakka-yolg‘iz 832 nafar nuroniy Farg‘onadagi “Beshchashma” sihatgohida imtiyozli dam oldi. 2022-yilda ular soni 64 nafar edi.

Bu kabi misollarga nima uchun murojaat qildik? Ayrim tashvishli va murakkab vaziyatlarni eslab, bugun bilan taqqoslar ekanman, beixtiyor ko‘zimga yosh keladi. Ochig‘i, 2004-2005-yillarda nafaqalarni moliyalashtirishga mablag‘ yetishmasdi. Buni moliyalashtirish Byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi zimmasiga yuklatilgan bo‘lsa-da, asosiy yuk viloyatlar tushumlariga bog‘lanib qolgandi. O‘shanda viloyat hokimi edim. O‘zini o‘zi qoplaydigan viloyatlar nisbatan yaxshi sharoitda bo‘lib, Namangan va dotatsiyadagi yana bir qator viloyatlarda pensiya uchun mablag‘larni moliyalashtirish qiyin kechardi. Holatni tartibga soluvchi idoralar eshigini taqillatib, iltimos qilishga majbur edik. Pensiya oluvchilarga naqd pul topish esa bundan ham mushkul edi. Shoshma-shosharlik bilan plastik kartalarni muomalaga kiritish nuroniylarni sarson-sargardon etganini unutib bo‘lmaydi. To‘g‘ri-da, pensiyani ikki-uch oylab kechikib olsa va plastik kartasiga tushirilgan shaxsiy mablag‘ini 15-17 foiz zarariga naqdlashtirsa, bu har qanday insonning nafsoniyatiga tegadi, alami keladi.

Ming shukrki, 2017-yilning fevralidan boshlab shu muammolar butunlay bartaraf etildi. Endilikda viloyatimizdagi 350 mingdan ziyod pensiya va nafaqa oluvchiga har oy boshida kechiktirilmasdan pul to‘lanmoqda. Ular o‘z pullarini xohishiga ko‘ra, naqd shaklda yoki plastik kartalar orqali olishi mumkin. Qolaversa, eng chekka qishloqlarda ham bankomatlar va zamonaviy savdo komplekslari erta-yu kech ishlab turibdi.

Yana bir muammoni aytmasam bo‘lmaydi. To‘g‘ri, avvallari ham qurilish va ishlab chiqarish, ijtimoiy obyektlar barpo etish yuzasidan dastur va rejalar bo‘lar edi. Biroq ko‘p hollarda ularning moliyaviy manbalari bo‘lmaganidan ayrim chora-tadbirlarni bajarish yarim yo‘lda qolar yoki umuman boshlanmas edi. Ayniqsa, aholiga uy-joy qurishga yetarli e’tibor berilmas, qurilayotgani ham markazlashgan mablag‘lar kamligi bois, korxona va tashkilotlar hisobidan yoki yirik foizli bank krediti bilan uy qurishga ko‘nikilgandi.

So‘nggi yillarda barcha sohalarda ulkan bunyodkorlik va yaratuvchanlik dasturlarini qabul qilish barobarida ularning moliyaviy manbalari ham aniq-tiniq belgilanmoqda. Ko‘p qavatli uylar keng ko‘lamda va sifatli qad rostlayapti, qurilish industriyasi taraqqiy etdi, yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda. Ipoteka kreditlari rivojlandi. Ozodlik, obodlik, farovonlik va qulay tadbirkorlik muhiti tufayli ichki va tashqi investitsiya hajmi, shunga mos ravishda turizm jozibadorligi ham karrasiga o‘smoqda.

Fursatdan foydalanib, qadrli jurnalist va blogerlarimizga rahmat aytmoqchiman. Xayriya-saxovat tadbirlarimiz bo‘ladimi yoki saylov jarayonidagi nuroniylar ibratimi, umuman, qizg‘in faoliyatimizni respublika va mahalliy ommaviy axborot vositalari muntazam yoritib kelmoqda. Shunga qaramay, muvaffaqiyatlarimiz bilan hech qachon xotirjamlikka berilmasligimiz lozim. Ular tarix zarvaraqlariga muhrlandi. Yangi marralar sari dadil qadam tashlamiz kerak. Shundagina xalqimizni rozi qilishimiz mumkin.

**“Har bir kun — bu imkoniyat, har bir kun — bu kelajak poydevori” degan shior bugundan boshlab hayotimiz qoidasiga, har qaysi rahbarning, barcha xalq noiblari, vazir va hokimlarning kundalik faoliyat dasturiga aylanishi shart”,** dedi Prezidentimiz.

Bu hayotiy da’vat mustaqilligimizning o‘ttiz ikki yilligini munosib nishonlashga tayyorgarlik ko‘rilayotgan shu kunlarda yanada ulug‘vorlik kasb etadi. Boisi, Prezidentimizning joriy yil 27-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz ikki yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarorida **“Yangi hayot uchun, Yangi O‘zbekiston uchun!”** bosh g‘oyasi tanlangani barchamizni yangi marralar sari chorlaydi. Bunda har bir kunning qadriga yetish, imkoniyatlardan unumli foydalanish qanchalik muhimligini davr shiddati va islohotlar ruhi ham anglatib turibdi.

Bugungi O‘zbekistonimiz yangi taraqqiyot cho‘qqilari tomon intilmoqda, bu yo‘lda barchamiz bir yoqadan bosh chiqarib, hamjihatlik va fidoyilik ko‘rsatish orqali oldimizga qo‘yilgan buyuk maqsadlarga erishamiz. Ikkilanish, qo‘rquv va umidsizlik bo‘lmasligi darkor, endi ortga qaytish yo‘q, faqat olg‘a yuramiz!

Xalqimizni Yaratganning o‘zi asrasin, duogo‘y otaxon-onaxonlarimizning ezgu niyatlari ushalaversin, rohat-farog‘atda, dorilamon damlarda umrguzaronlik qilishlariga tilakdoshmiz.



NUQTAYI NAZAR



# ENERGETIKA bozor munosabatlariga o‘tishning zarurati va ahamiyati nechog‘liq?



**Ikromjon RAHMONOV, Toshkent davlat texnika universiteti kafedra mudiri, texnika fanlari doktori**

Boshlanishi 1-betda

Masalaning yana bir jihati borki, bu iste’mol qilinayotgan energiya resurslaridan foydalanishning maqsadliligi va samaradorligini nazarda tutadi. Masalan, xorijiy davlatlarda turar joy sektorida 1 metr kvadrat hududga to‘g‘ri keladigan solishtirma elektr energiyasi sarfi 120-150 kilovatt-soatni tashkil etsa, O‘zbekistonda 390-400 kilovatt-soatga yetadi. Demak, mamlakatimizda elektr energiyasi iste’moli xorijdagidan deyarli 3 barobar yuqori. Bu kabi qiyosiy ko‘rsatkichlar boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha tahlil qilinsa ham shunday xulosaga kelish mumkin. Albatta, chet elda energiya sarfining bu qadar kamligini kundalik turmush tarzida aholining energiya tejovchi va energiya samaradorligi yuqori qurilmalarni ishlatishi bilan asoslash mumkin. Biroq baribir energiya sarfidagi qiyosiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bunday tafovut iste’molchilarning energiya tejash madaniyati bilan ham tavsiflanadi.

Mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, aynan aholi turar joylarida energiyani tejash imkoniyati 20-30 foizni tashkil etadi. Ya’ni bugun iste’molchilar, jumladan, aholining elektr energiyasidan samarasiz foydalanayotgani, zarurat bo‘lmasa ham elektr jihozlarini ishlatishi, yoritish tizimlarining uzluksiz yonib turishi iste’mol oshishiga olib kelmoqda. Mazkur raqamlar bitta iste’molchi yoki bir xonadon misolida u qadar katta ko‘rsatkich emasdir, lekin elektr energiyasidan foydalanuvchi abonentlar soni 7,3 million ekani hisobga olinsa, hazilakam raqam hosil bo‘lmasligi tushunarli. Sutkalik, haftalik, oylik va yillik tejalgan elektr energiyasidan boshqa yo‘nalishlarda maqsadli foydalanilsa, samaradorlik ancha ortadi.

Shu o‘rinda savol tug‘iladi: talab ortib borayotgan bir pallada iste’molchilarni uzluksiz sifatli elektr energiyasi bilan ta’minlash yo‘nalishida oldimizda turgan vazifalar nimalardan iborat?

## Yetti yilda 49 foiz oshadi

Energetika vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda elektr stansiyalari tomonidan ishlab chiqarilgan elektr energiyasi 74,3 milliard kilovatt-soatni tashkil etgan. 2030-yilga borib bu ko‘rsatkich 124 milliard kilovatt-soatga yetishi yoki bugungiga nisbatan 49 foiz oshishi prognoz qilinmoqda. Agar mazkur ko‘rsatkich ishlab chiqarish quvvatiga mos ravishda bugun energetika tizimining o‘rnatilgan quvvati 18 gigavatt ekani hisobga olinsa, 2030-yilda bu ko‘rsatkich 35,4 gigavattga yetishi yoki 2 barobar oshishi kutilmoqda.

Prognozlar ko‘rsatishicha, kelgusi yetti yilda bugungi 40 foizga yaqin ma’nan va jisman eskirgan energiya qurilmalarini foydalanuvdan chiqarish bilan birga, energetika tizimi quvvatini 17,4 gigavattga oshirish zarurati mavjud. Bunda bugungi energetik muvozanat ko‘rsatkichlari bilan taqqoslaganda, issiqlik elektr stansiyalari quvvatini 15,4 gigavattdan 19,6 gigavattga, GESlar quvvatini 2,2 gigavattdan 3,8 gigavattga, qayta tiklanuvchi energiya manbalari quvvatini 0,2 gigavattdan 10 gigavattga oshirish talab etiladi.

Energiya resurslariga talab ortib borishi sharoitida mamlakat energetika xavfsizligini ta’minlash masalasi ustuvor yo‘nalishlardandir. Masalaning yechimi faqat yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish bilangina hal etilmaydi. Chunki talab doimiy ravishda karrasiga ortib bormoqda. Birgina misol: bugun O‘zbekiston dunyoda aholi soni bo‘yicha 41-o‘rinda turadi va bu borada 50 ta yetakchi mamlakat qatoriga kiradi. 2030-yilga borib yurtimiz aholisi 40 millionga yetishi prognoz qilingan. Bu esa, o‘z navbatida, iqtisodiyot tarmoqlari, ishlab chiqarish, maishiy xizmat ko‘rsatishda elektr energiyasiga talab oshishiga olib keladi. Xo‘sh, bunday sharoitda undan foydalanish samaradorligini oshirishda qanday mexanizmlar mavjud? Bu boradagi xalqaro tajriba va yurtimizdagi joriy holat qay darajada?

## Arzon narsa beqadr(mi)?

Bugun energiya samaradorligi va tejamkorligi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlarga ega xorijiy davlatlarda elektr energiyasi narxini tahlil qilsak, ularda nechog‘liq yuqori qiymatda ekanini ko‘rish mumkin. Masalan, 1 kilovatt-soat elektr energiyasi narxi Germaniyada — 62 sent, Yaponiyada — 24,5 sent, Xitoyda — 7,6 sent, Rossiyada — 5,5 sent, Ozarbayjonda — 4,7 sent, qo‘shni Qozog‘istonda — 4,8 sent. O‘zbekistonda esa 2,5 sent. Yana bir ma’lumot: elektr energiyasi narxi arzonligi bo‘yicha O‘zbekiston dunyoda 13-o‘rinda turadi.

Energiya resurslari iste’molini kamaytirish borasida, avvalo, yuqori xarajat talab etuvchi chora-tadbirlar va ularni moliyalashtirish manbalarini obdon o‘ylab ko‘rish kerak. Chunki yuqori xarajatliligi tufayli doim ham hamma narsa yetarli darajada amaliyotga joriy qilinmaydi. Bunday sharoitda eng maqbul yo‘l energetikada bozor munosabatlariga o‘tish va energiya resurslari narxini erkinlashtirishdir.

## Ulgurji raqobatdosh bozorning joriy holati

Bugun mamlakatimizda elektr energiyasining ulgurji raqobatbardosh bozoriga o‘tish yo‘nalishida qator amaliy ishlar qilinmoqda. Jumladan, Energetika vazirligi ma’lumotiga ko‘ra, elektr energiyasining ulgurji raqobatbardosh bozoriga izchil o‘tishni nazarda tutuvchi konsepsiya ishlab chiqilgan bo‘lib, u uch bosqichni o‘z ichiga oladi.

Birinchi bosqichda elektr energiyasi ishlab chiqarish korxonalarini erkinlashtirish va ishlab chiqariladigan elektr energiyasini sotishni ixtiyor etgan xususiy (mustaqil) ishlab chiqaruvchilar litsenziya olishi ko‘zda tutilgan.

Ikkinchi bosqichda elektr energiyasini taqsimlash tizimining yagona operatori yaratiladi. Elektr energiyasini iste’molchilarga sotishga oid vazifalar esa asta-sekin yetkazib beruvchilarga o‘tkaziladi. Iste’molchilar elektr energiyasini savdo onlayn platformasi yoxud istalgan yetkazib beruvchi orqali xarid qilish imkoniyatini qo‘lga kiritadi.



Uchinchi bosqichda “kun ichi (soatbay) savdolar” qo‘llanadi. Unga binoan, rejali asosda savdo maydonchasida soatbay ishlab chiqarilgan va iste’mol qilingan elektr energiyasining ortiqcha yoki yetmagan hajmi onlayn oldi-sotdi qilinadi.

Energetikada bozor munosabatlariga o‘tish, energiya resurslari narxini erkinlashtirish masalasiga Prezidentimiz ham alohida to‘xtalib, jumladan, bunday degandi: “Energetika sohasida raqobatbardosh ulgurji bozorni shakllantirish, xususiy investorlar uchun keng imkoniyatlar yaratish va shu orqali elektr energiyasiga o‘sib borayotgan talabni maqbul narxlarda qondirishni asosiy vazifa etib belgiladik. Shu tariqa 2025-yilgacha yurtimizda kamida 50 foiz elektr energiyasini xususiy elektr stansiyalarida ishlab chiqarish uchun barcha imkoniyatlarni yaratib beramiz”.

Energetika vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, bugunga kelib issiqlik, quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish bo‘yicha xorijiy investorlar bilan qiymati 16,6 milliard dollarga teng 34 ta bitim imzolangan. Ushbu bitimlar asosida 19,5 gigavatt quvvatga teng yangi elektr stansiyalari ishga tushiriladi. Elektr energiyasini mustaqil ishlab chiqaruvchilar qatorida Total Eren SA (Fransiya), Abu Dhabi Future Energy Company — Masdar (BAA), Aksa Enerji Üretim A.Ş va Cengiz Enerji San. ve Tic. A.Ş. (Turkiya), ACWA Power (Saudiya Arabistoni), Siemens Energy (Germaniya), YEDF (Fransiya), Stone City Energy (Niderlandiya), Gezhouba Overseas Investment Group (XXR), Tepelen Group AG (Shveysariya) kabi kompaniyalar bor.

## Tabaqalashtirilgan tariflar

Bozor munosabatlariga o‘tishning asosiy omillaridan biri narxlarni erkinlashtirishdir. Mavjud energiya resurslaridan samarali foydalanishda esa tabaqalashtirilgan tariflar tizimini qo‘llashning samaradorligi xorij tajribasida allaqachon tasdig‘ini topgan. Tabaqalashtirishda energiya resurslari iste’moli uchun to‘lovlar sutkaning turli davrida turli tariflar asosida o‘rnatilishini hisobga olsak, elektr energetikasi tizimining maksimal yuklama soati vaqtida, ya’ni sutkaning tarif yuqori bo‘lgan paytida to‘lov yuqoriligini bilgan aholi energiya iste’molini cheklaydi. Bu vaqtda yuqori ehtiyoj bo‘lmagan elektr jihozlarini ishlatmaydi.

Elektr energetikasi tizimining yuklamasi minimal vaqtda, ya’ni sutkaning tarif past bo‘lgan davrida aholi iste’moli oshishi energetika tizimi uchun ham, aholi uchun ham manfaatlidir. Bu, o‘z navbatida, energetika tizimi qurilmalari, elektr uzatish liniyalari va transformatorlarning uzoq muddat va soz holatda ishlashiga imkon beradi. Albatta, bu kabi tizimlar joriy etilishi vaqt talab etadi. Avvalo, milliy zehniyatdan kelib chiqqan holda barcha omillarni hisobga olish va iste’molchilarni mazkur o‘zgarishlarga tayyorlash darkor. Lekin bir jihat aniqki, mazkur tizim xorijiy mamlakatlarda o‘zini to‘la oqlagan. Bunda energetika tizimi bilan birga iste’molchi katta manfaatdorlikka ega ekanini unutmaslik lozim.

Tabaqalashtirilgan tariflarga o‘tishning dastlabki bosqichi sifatida 2022-yilda energiya resurslari iste’moli bo‘yicha “ijtimoiy norma” tizimini joriy etish masalasi ko‘tarilgan, bu bo‘yicha hukumat qarori loyihasi tayyorlanib, muhokamaga qo‘yilgan edi. Keyinchalik mazkur tizimni joriy etish muddati kechiktirildi. “Ijtimoiy norma”ning amaliyotga kiritilishi energiya resurslari iste’molida sezilarli ijobiy o‘zgarishlarga olib kelarmidi? “Ijtimoiy norma”ning ijtimoiyligi nimada?

## “Ijtimoiy norma”ni joriy etish zarurati

“Ijtimoiy norma” tizimini joriy etish, avvalo, energiya resurslari narxining bozor narxlariga o‘tishi bilan tavsiflanadi. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil may-iyun oylarida muhokamaga qo‘yilgan “Yoqilg‘i-energetika resurslarining narxlarini o‘zgartirish to‘g‘risida”gi qarori loyihasiga muvofiq, 2022-yil 1-iyuldan elektr energiyasi va gaz iste’moli uchun narxlarni “ijtimoiy norma” asosida belgilash kutilgan edi. Loyihaga ko‘ra, amaldagi narxlar oshirilishi, shuningdek, belgilangan normadan ko‘proq ishlatganlar qo‘shimcha har bir kilovatt-soat elektr energiyasi uchun 2 barobar haq to‘lashi kerak edi. Ya’ni aholi iste’moli uchun oyiga 250 kilovatt-soatgacha elektr energiyasi me’yor deb belgilanib, 1 kilovatt-soat uchun 325 so‘mgacha imtiyozli narx qo‘llanadi. Bundan yuqori har bir kilovatt-soat uchun esa 650 so‘mdan to‘lash, ya’ni bozor narxini qo‘llash taklif etilgan. Mazkur qaror energiya resurslari narxini erkinlashtirish va bozor munosabatlariga o‘tish yo‘lidagi dadil qadam edi.

Aynan mazkur tizim “ko‘p iste’mol — ko‘p to‘lov” tamoyili asosida shakllantirilgan. Energiya resurslari iste’moli bo‘yicha belgilangan me’yor o‘rtacha ko‘rsatkich bo‘lib, aksariyat aholining oylik iste’moli undan oshmaydi. Ma’lumotlarga ko‘ra, iste’molchilarning 80 foizi oyiga o‘rtacha 200 kilovatt-soatgacha elektr energiyasi ishlatadi. Lekin aholi iste’mol qiladigan jami elektr energiyasining bor-yo‘g‘i 31 foizi xonadonlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Ya’ni aholi iste’moli uchun yo‘naltiriladigan elektr energiyasining 70 foizini oylik iste’moli 200 kilovatt-soatdan yuqori bo‘lgan 20 foiz aholi ishlatadi. Bundan ko‘rish mumkinki, aholining juda kam qismi elektr energiyasining asosiy qismidan foydalanadi.

Mazmunan qaralganda, “ijtimoiy me’yor” tizimi joriy etilishi aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Har bir kilovatt-soat elektr energiyasi uchun davlat byudjetidan muayyan miqdorda subsidiya ajratiladi. Ijtimoiy norma mazkur subsidiyalarni aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj yoki elektr energiyasi iste’moli minimal bo‘lgan aholi qatlamiga yo‘naltirishni nazarda tutadi.



Hozircha mazkur tizimni joriy etish kechiktirilgan. Lekin yuqoridagi tahlillardan ko‘rish mumkinki, “ijtimoiy norma” tizimining joriy etilishi elektr energiyasini bozor narxida sotish va uning sotuvidan foyda ko‘rish orqali yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish, elektr tarmoqlarini modernizatsiya qilish imkonini beradi. Bu kabi o‘zgarishlar pirovardida, elektr ta’minoti tizimi barqaror ishlashiga zamin yaratiladi.

## Targ‘ibot — eng yaxshi vosita

Odatda muayyan turdagi islohotlar avvalida omma orasida turli yondashuvlarga duch kelinadi. Aksariyatida joriy etilishi rejalashtirilgan islohot to‘g‘risida noto‘g‘ri fikrlar mavjud bo‘lib, ularning mohiyati va mazmuni batafsil tushuntirilgandan so‘ng fuqarolar noto‘g‘ri o‘ylaganini tan oladi. Tajriba ko‘rsatadiki, har qanday sohadagi yangilik va o‘zgarishlarning tub mazmun-mohiyatini aholi orasida targ‘ib qilish islohotlarning muvaffaqiyatini belgilaydi. Bugun mediaolam rivojlanayotgan bir sharoitda sohadagi yangilik va o‘zgarishlarni aholiga sodda, tushunarli yetkazish, asosiy vektorni islohotlarning inson qadri va manfaatlariga yo‘naltirish lozim.

“Ijtimoiy norma” tizimi targ‘ibotida ham shu kabi bo‘shliqlar kuzatildi. Targ‘ibot yetishmadi. Rasmiy ma’lumotlar ko‘p berildi, lekin sodda va aniq videoroliklar, mazkur tizim joriy etilishidan avval va joriy etilganidan keyin uning to‘lov holatiga ta’sir ko‘rsatishi jarayoni xalqqa yetarlicha yetkazilmadi. Tan olib aytish kerak, energiya resurslari narxi bilan bog‘liq har qanday o‘zgarish doim ham ijobiy kutib olinmaydi. Lekin bu o‘zgarishlar faqat va faqat xalq manfaatiga xizmat qilishini yetkazish hamda tushuntirish lozim. Bu, o‘z navbatida, aholining energiya resurslaridan foydalanish madaniyati oshishiga va energiya resurslari iste’moli uchun to‘lov tizimida “ko‘p iste’mol — ko‘p to‘lov” tamoyili qo‘llanishiga olib keladi. Shu o‘rinda iste’molchilarga “Pul o‘zingizniki, lekin resurslar barchamizniki”, degan iborani eslatish lozim.

## Xulosa o‘rnida

Bugun O‘zbekiston barcha sohada ildam odimlamoqda. Buni dunyo hamjamiyati ham e’tirof etmoqda. Qaysi sohani olib qaramang, rivojlanishni ko‘rasiz. Asosiy jihatni ham unutmaslik kerak — barcha sohalar rivoji mamlakatning energetik mustaqilligi va barqarorligi bilan ifodalanadi. Har bir voqelik — bir dars, saboq aslida. So‘nggi vaqtlarda energetika tizimida kuzatilayotgan qisqa muddatli va mavsumiy taqchillikdan to‘g‘ri xulosa chiqarish lozim. Bu faqat ishlab chiqarish quvvatini ko‘paytirish bilan hal etiladigan masala emas. Sababi, so‘nggi besh yilda elektr energiyasini ishlab chiqarish 1,3 barobar oshirildi. Lekin tizimdagi muammolar to‘la-to‘kis bartaraf etilgani yo‘q. Shundan kelib chiqib, tizimning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan iste’molchilarning shaxsiy mas’uliyatini oshirish, energiya resurslaridan samarali foydalanish va rag‘batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish va, asosiysi, bozor munosabatlariga o‘tish jarayonini tezlashtirish oldimizga qo‘yilgan vazifalarning sifatli va o‘z vaqtida bajarilishiga zamin yaratadi.

Energetikada bozor munosabatlariga o‘tish uchun muayyan ishlar bajarilgan va ular davom ettirilmoqda. Lekin bugungi shiddatli zamonda bu masalada qat’iyroq bo‘lish talab etiladi. Bozor munosabatlariga o‘tishning huquqiy mexanizmlarini yaratish borasidagi ishlarni kun tartibiga olib chiqish lozim.

Xususan, bozor munosabatlarini tartibga solishda asos bo‘luvchi “Elektr energetikasi to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahririni yaratish bilan bog‘liq ishlarni hamda Elektr tarmoqlari kodeksi (Grid Code) va elektr energiyasi bozori modelini ishlab chiqish jarayonini yakuniga yetkazish maqsadga muvofiq. Elektr energiyasi bozori modeli va bozor munosabatlariga o‘tish konsepsiyasini ishlab chiqish sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishi bo‘lmog‘i darkor. Zero, energetikada bozor munosabatlariga o‘tishni davrning o‘zi talab etmoqda. Chunki raqobat muhitidagina rivojlanish bor. Tizimning bozor munosabatlariga o‘tishi esa mazkur raqobatning paydo bo‘lishiga, natijada iste’molchilarni sifatli va uzluksiz elektr energiyasi bilan ta’minlashga asos bo‘ladi.





MUTAXASSIS MINBARI

**RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLARDA KO'PROQ BOSHLANG'ICH TA'LIMGA INVESTITSIYA KIRITILGANDA SAMARAGA ERISHILGAN. SABABI, BOSHLANG'ICH TA'LIM OLISHGA IMKONIYAT YARATILMASA, O'QITISH SIFATI TUSHIB KETSA, DAVLAT KAMBAG'ALLASHADI. YA'NI AHOLINI KAMBAG'ALLIKDAN CHIQARISHNING ENG TO'G'RI VA UZOQ MUDDATGA MO'LJALLANGAN SAMARALI YO'LLARIDAN BITTASI BOSHLANG'ICH VA O'RTA TA'LIMGA KO'PROQ INVESTITSIYA KIRITISHDIR.**

# TA'LIMGA YO'NALTIRILGAN SARMOYA

## farovonlikka erishishning eng to'g'ri va samarali yo'lidir



**Barno SANAQULOVA, Toshkent moliya instituti professori, iqtisodiyot fanlari doktori**

Boshlanishi 1-betda

Bu davlatning inson kapitaliga, ta'limga yo'naltiradigan investitsiya strategiyasini tubdan ko'rib chiqish masalasini kun tartibiga qo'yyapti. Chunki bugun dunyo mavjud kasblarning qariyb 80 foizi o'rnini sun'iy intellekt egallashi arafasida turibdi. Islohotlar ilmga, ilmiy tahlillarga tayanilsagina qisqa yoki uzoq muddatli samarasini beradi. Ilmga tayanilmagan islohotning natijasi juda qimmatga tushishi bor gap. Bugun ta'limga besamar pul tikishga, xato qilishga haqqimiz yo'q.

Davlatlarning rivojlanganlik darajasiga qarab ta'limga yo'naltirilgan investitsiyaning samara berishi har xil bo'ladi. Aytaylik, rivojlangan mamlakatlarda oliy ta'limga tikilgan investitsiya juda tez samara bergani haqida misollar bor. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa oliy ta'limga kiritilgan sarmoya iqtisodiy o'sishda aks sado beradi. Oliy ta'limga qilingan xarajat natijasida muayyan darajada aql egalariga ega bo'lish mumkin. Lekin ularga munosib ish o'rni yaratib berilmasa, oliy ta'limda kadrlar tayyorlansa-yu, amalda ularga ehtiyoj bo'lmasa, bu mutaxassislar hammasi xorijga chiqib ketadi.

Rivojlanayotgan davlatlarda ko'proq boshlang'ich ta'limga investitsiya kiritilganda samaraga erishilgan. Sababi, boshlang'ich ta'lim olishga imkoniyat yaratilmasa, o'qitish sifati tushib ketsa, davlat kambag'allashadi. Ya'ni aholini kambag'allikdan chiqarishning eng to'g'ri va uzoq muddatga mo'ljallangan samarali yo'llaridan bittasi boshlang'ich va o'rta ta'limga ko'proq investitsiya kiritishdir. Shu ma'noda, mamlakatimizda inson kapitaliga, ta'limga qaratilayotgan e'tibor ilk natijalarini ko'rsata boshladi. Birgina misol, bolalarni maktabgacha ta'limga qamrab olish darajasi 27 foizdan 70 foizga oshdi. Oliy ta'limda esa qamrov 9 foizdan qariyb 40 foizga yetyapti. Lekin baribir qamrab olinmagan 60 foizni esdan chiqarmaslik kerak. Bu 60 foiz yigit-qiz boshlang'ich va o'rta ta'limda qanday bilim olgan va salohiyatga ega bo'lgan bo'lsa, demak, bir umr shu saviya bilan qolib ketadi, degani.



Ta'limga kiritilgan investitsiya birdan samara bermaydi. Kamida 5-10 yil kutish lozim. Shundan keyin yaqqol natijani ko'rish mumkin. Bugungi holatimiz bundan 10 yil oldin qaratilgan e'tibor va sarflangan mablag'ning hosilasi. Bu borada tahliliy ma'lumotlarga tayanilsa, shubhasiz, maqsadga muvofiq bo'ladi. Ya'ni bugun O'zbekistonning rivojlanganlik darajasiga qarab ta'limning qaysi bo'g'iniga investitsiya kiritilishi aniqlashtirilsa, mablag' samarali sarflanadi.



**OLIY TA'LIM OLISH UCHUN XORIJGA KETGAN YOSHLARNING QAYTISH EHTIMOLI KAMAYIB KETADI. BU ESA BUGUN TA'LIMGA KIRITILAYOTGAN INVESTITSIYA MAHSULINI KO'RISH EHTIMOLI KARRASIGA KAMAYIB KETADI, DEGANIDIR. O'N YILDAN KEYIN BU KADRNING QAYTIB KELISHIGA HECH KIM KAFOLAT BERMAYDI. SHU BOIS, BUGUN MANA SHU KABI MASALALARNI YECHAYOTGANDA RAKURSNI TA'LIM ORQALI KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISH MASALASINI KUN TARTIBIGA QO'YISHGA QARATISHIMIZ KERAK.**

Bundan tashqari, xususiy ta'lim bilan davlat rakursi qanday bo'lishi kerak? Ya'ni davlat bugun o'z funksiyalarini, vazifalarini xususiy sektorga yuklashga tayyormi? Chunki ertaga buning mahsulini yana davlat ko'radi. Mas'uliyat xususiy sektorga yuklanganidan keyin nazorat ham davlat qo'lidan ketishi mumkin. Hukumat xususiy sektorda berilayotgan bilim, ko'nikma va malaka sifatini to'liq nazorat qila olmasligi ehtimoli bor. Xususiy sektor esa ta'lim bilan bog'liq bo'lgan yo'nalishlarga faqat biznes sifatida qarayotgan, ya'ni uzoq muddatli strategiya ishlab chiqmagan bo'lishi xavfi mavjud. Muayyan muddatdan keyin yopilib ketishi ham mumkin. Bunday paytda davlat o'zini qanday tutadi? Xususiy OTMlar bitiruvchilarining ish bilan ta'minlanishi qanday, degan savol ham kun tartibiga qo'yilishi kerak.



Eng dolzarb masalalardan biri shuki, bugun biz kadrlar tayyorlanayotgan yo'nalishlarni sun'iy intellekt kirib kelishi nuqtayi nazaridan, iqtisodiyotni raqamlashtirish rakursida qayta ko'rib chiqishimiz lozim. Ta'limning har bir bosqichida falsafamizni aniq, lo'nda qilib olishimiz shart. Boshlang'ich ta'limda nima o'rgatishimiz kerak? Bola qanday ko'nikmani egallab ketishi zarur? O'rta maxsus yoki oliy ta'limda qanday bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishi lozim? Har biriga inson kapitalini rivojlantirish uchun qo'yiladigan yuklama va ta'lim borasidagi strategiyalar ishlab chiqilishini davrning o'zi talab qilyapti.

Oliy ta'lim olish uchun xorijga ketgan yoshlarning qaytish ehtimoli kamayib ketadi. Bu esa bugun ta'limga kiritilayotgan investitsiya mahsulini ko'rish ehtimoli karrasiga kamayib ketadi, deganidir. O'n yildan keyin bu kadrning qaytib kelishiga hech kim kafolat bermaydi. Shu bois, bugun mana shu kabi masalalarni yechayotganda rakursni ta'lim orqali kambag'allikni kamaytirish masalasini kun tartibiga qo'yishga qaratishimiz kerak. Albatta, har bir xatti-harakatimiz ilmiy yondashuvga asoslanishi lozim. Chunki ba'zi ilmiy izlanishlarga ko'ra, bir yil olingan ta'lim insonning har yillik daromadini 10 foiz oshirishi isbotlangan. Muayyan vaqtdan keyin bir yil bilim olishingiz oylik daromadingiz oshishini kafolatlaydi. Bundan davlatning o'zi ham manfaatdor. Sababi, daromadingiz oshgani aholi daromadi ulushi oshdi, deganidir. O'z navbatida, soliq tarzida byudjetga tushum bo'lib keladi. Daromadning qolgan qismi bilan bozorga borasiz. Shu asnoda ishlab chiqarish, tovar ayirboshlash jarayoni tezlashadi. Ya'ni bir kishining daromadi tufayli atrofdagi bir qancha tuzilma kun ko'radi. Shu bois, odamlar 40, hatto 50 yoshda ham malaka oshirish, bilim va ko'nikmasini yangilab borishga majbur. Kadrlar bozorida ish o'rnini boy berib qo'yishni istamagan inson pensiya yoshiga qadar o'z ustida to'xtovsiz ishlashini davrning o'zi talab qilyapti.

Bugun bir haqiqatni tan olishimiz kerak: davlat uzoq yillardan buyon dolzarb bo'lgan masalaga ijobiy yechim topdi. Xususiy ta'limga keng yo'l ochib berdi. Shu bilan oliy ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojga yechim topdi. Chunki avvalgi 9 foizlik qamrov juda kam edi. Qariyb 90 foiz yoshni oliy ta'lim bilan qamrab olishga imkoniyat yo'q edi. Pirovardida, bu yigit-qizlarni yo'qotayotgan edik. Mana shu holatni davlat to'g'ri baholadi. Endi buning samarasini tez orada ko'ramiz.

Bugun bizda oliy ta'lim xarajati ayrim qo'shni davlatlarga qaraganda bir oz qimmatligining asosiy sabablaridan biri binolar, doimiy chiqimlar bilan bog'liq. Mana shu o'rinda davlatning faol ishtiroki katta ahamiyatga ega. Masalan, foydalanilmay, bo'sh turgan kasb-hunar kollejlarini uzoq muddatga arzon narxda xususiy oliy ta'lim muassasalariga berish mumkin. Parlament so'rovi o'tkazilib, mamlakat bo'yicha bo'sh turgan kasb-hunar kollejlari reyestri shakllantirilsa, nur ustiga nur bo'lardi. Ularning bo'sh turgan binosini xususiy oliy ta'lim muassasalariga uzoq muddatli ijaraga berish orqali hozirgi ta'lim xarajatini karrasiga kamaytirish va chetga chiqib ketayotgan investitsion oqimdagi pulni o'zimizda qoldirish mumkin.

Kimda inson kapitali yuqori bo'ladi? Albatta, erkin, tanqidiy-tahliliy fikrlay oladigan, bilim va ko'nikmalarga ega insonda. Mana shu o'rinda yana bir haqiqatni tushunib olishimiz talab etiladi: inson kapitali shakllanishida asosiy poydevor maktabgacha, boshlang'ich va o'rta ta'limda qo'yiladi. Bugun dunyo ilm-fanida taqdim etilayotgan ilmiy izlanishlar maktabgacha va umumiy o'rta ta'limga poydevor qo'ymay turib, biror natijaga erishish mushkulligini tasdiqlamoqda. Shu nuqtayi nazardan, mamlakatimizda salmoqli investitsiyani maktabgacha va maktab ta'limiga yo'naltirish yondashuvlari o'zini oqlaydi.

Bu masalada statistikani yolg'on gapirtirish o'zimizga ziyon keltiradi. O'qituvchilarga munosabatni ham tubdan o'zgartirishimiz talab etilmoqda. Bugun mamlakatimizda mana shu masala qizg'in bosqichga kiryapti. Pedagoglar maqomini va maoshini oshirish borasidagi sa'y-harakatlar e'tirofga loyiq. Bu borada davlat zimmasidagi vazifani a'lo darajada uddalayapti. Ammo yurtdoshlarimiz anglab, bajarishi zarur bo'lgan ishlar ko'p oldinda.

Dunyoda bunday amaliyotlar bor: agar biror o'qituvchini rag'batlantirish zarurati paydo bo'lsa, 5-10 yil oldin undan ta'lim olgan o'quvchilaridan so'raladi. Chunki muallimning mehnati, salohiyati o'quvchi va talabalarining hayotida aks etadi. Basharti pedagogning bilimidan talaba yoki o'quvchi hayoti davomida foydalangan bo'lsa, demak, bu o'qituvchi haqiqatan ham kuchli va rag'batga munosib. Nazarimda, muallimning salohiyatini moddiy qo'llab-quvvatlashga shunday rakursda qaralsa, o'qituvchi o'z ustida, albatta, ishlaydi. Bor bilimi va g'ayratini o'quvchisi uchun fido qiladi. Chunki ertaga unga o'quvchisining xulosasiga asosan baho beriladi. Shunga qarab jamiyatda o'rni belgilanadi. Shu bois, o'qituvchi va tibbiyot xodimlari eng ko'p oylik oladigan jamiyatni ko'pchilik orzu qiladi. O'qituvchilar sertifikat, guvohnomalar ortidan emas, bilim, yangiliklar ortidan quvishi kerak. U majburlikdan emas, manbani asl holatda o'qish, yangi bilim orttirish uchun bir necha tilni bilishi va o'z ustida ishlash lozim. Mana shu tizim yo'lga qo'yilsa, 2030-yilga borib ta'lim bilan bog'liq strategik vazifalarning salmoqli qismini hal qilgan bo'lamiz. O'z navbatida, bu yuqori intellektual salohiyatga ega avlodning yangi qatlamini maydonga olib kirish imkonini beradi.

YUKSALISH PALLASI

# ALLOMA AJDODIMIZ orzulari bugungi yoshlar timsolida ushalmoqda

**Mamlakatimizda yoshlarni har jihatdan qo'llab-quvvatlash, xususan, ularning jahon standartlari asosida bilim olishini ko'zlab amalga oshirilayotgan siyosat Taraqqiyot strategiyasidagi muhim tashabbuslardan biridir. Ta'lim sifatini yuksaltirishga qaratilayotgan e'tibor hamda soha rivoji uchun ajratilayotgan sarmoya esa uzoqni ko'zlab belgilangan maqsadlar in'ikosidir.**



**Po'latxon LUTFULLAYEV, Namangan davlat chet tillar instituti rektori vazifasini bajaruvchi**

Prezidentimizning 2022-yil 9-iyundagi qaroriga asosan, ma'rifatparvar olim, bir necha tilni bilgan Is'hoqxon Ibratning yorqin xotirasi hamda nomini abadiylashtirish, xorijiy tillarni mukammal egallagan, chuqur bilimga ega, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash maqsadida Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanida Chet tillar instituti tashkil etilgan edi. Oliy ta'lim muassasasi sifatida e'tirof etilgan ta'lim dargohi Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillar instituti sifatida yuridik shaxs maqomini oldi. Xalqaro baholash dasturlari (PISA, TALIS, PIRLS)dan foydalangan holda o'qitishning zamonaviy shakllari hamda metodlarini joriy etish, yuqori bilim va ko'nikmalarga ega, oliy ma'lumotli mutaxassislar va ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlash institutning asosiy yo'nalishlaridan.

Shunga asosan, 2022/2023-o'quv yilidan boshlab OTMning 9 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishi va 5 ta magistratura mutaxassisligi bo'yicha abituriyentlar qabul qilindi. Ayni paytda 500 ga yaqin yigit-qiz birinchi kursni muvaffaqiyatli tamomladi. Qisqa muddatda Italiyaning Piza, Sannio, Kalabriya universitetlari, Janubiy Koreyaning Xankuk chet tillar universiteti, Rossiyaning Udmurt davlat universiteti, Ruminiyaning Oradiya universiteti, Qirg'izistonning O'sh davlat universiteti, O'sh texnologiya universiteti, Polshaning Transport va logistika xalqaro universiteti, Nsa amaliy fanlar universiteti, Torundagi Nikolas Kopernikus universiteti, Ostrava universiteti va Toshkent fransuz alyansi bilan memorandumlar imzolanib, akademik va ilmiy hamkorlik, o'qituvchi va talabalar almashinuvi bo'yicha kelishuvga erishildi. Shuningdek, Malayziyaning menejment va ilm-fan universiteti, Turkiyaning Adiyaman, Kastamonu, Gulisim universitetlari, Ispaniyaning Xavula universiteti va Hindistonning Ingliz va chet tillar universiteti bilan hamkorlik memorandumi imzolash rejalashtirilgan.

Institut o'quv jarayonida talabalarga zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida sifatli ta'lim berilishiga alohida e'tibor qaratilgan. AQSHning "Fulbrayt" dasturi doirasida xorijlik mutaxassislar jalb etilib, institutda talabalar uchun mashg'ulotlar, professor-o'qituvchilar uchun seminar-treninglar tashkil qilindi.

Namangan davlat chet tillar institutini tamomlagan mutaxassis ikki tilli kvalifikatsiya diplomiga ega bo'ladi. Ya'ni ta'lim olgan yo'nalishi doirasidagi xorijiy tilga qo'shimcha ravishda ikkinchi til ham mukammal o'rgatiladi. Bu asosida bitiruvchi har ikki til bo'yicha keyingi faoliyatini davom ettirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Mazkur tajriba bo'lg'usi kasb egasining mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini ta'minlaydi. 2023/2024-o'quv yilidan abituriyentlar tanlov qamrovi oshirildi. Koreys, xitoy, yapon, arab, fors tillari, shuningdek, kompyuter lingvistikasi ta'lim yo'nalishlariga hujjatlar qabul qilindi. Magistratura bosqichida badiiy tarjima (ingliz tili), sinxron tarjima (ingliz tili) mutaxassislarini tayyorlash yo'lga qo'yildi. Barcha yo'nalishlarda o'qiyotgan talabalar sifatli bilim olishi uchun axborot-resurs bazasi xorijiy o'quv, badiiy va ilmiy adabiyotlar bilan boyitilayotir.

Prezidentimiz qarorida institutga 1 000 o'rinli yangi o'quv binosi va 400 o'rinli talabalar turar joyi qurish uchun doimiy foydalanish huquqi bilan zarur yer uchastkasi ajratilishi belgilangan edi. Mazkur topshiriq ijrosining amaliy ifodasi sifatida Davlatobod tumanidagi Yangi Namangan shaharchasi hududida 5 gektar maydon ajratildi. Yaqinda Namangan davlat chet tillar institutining yangi o'quv binosi, axborot-resurs markazi va faollar zali, talabalar turar joyi, oshxona, ochiq va yopiq ko'rinishdagi sport majmuasi qurilishi uchun viloyat hokimi boshchiligida qator tashkilotlar rahbarlari, ilm ahli, OAV xodimlari va yoshlar ishtirok etgan tadbirda tamal toshi qo'yildi. Qurilish ishlari uchun tender o'tkazilib, davlat byudjetidan umumiy hisobda 100 milliard so'm ajratilgan. Loyiha ikki yilga mo'ljallangan bo'lib, birinchi qismi 365 kun oralig'ida tayyor holga keltirilishi hamda 2024-yil 1-avgust kuni foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan.

Institutning ayni paytda foydalanilayotgan binosi va inshootlarida rekonstruksiya hamda jihozlash jarayoni ketmoqda. Is'hoqxonto'ra Ibratga hurmatning yorqin ifodasi, shuningdek, yoshlarning ulug' vatandoshimiz merosini o'rganish, unga munosib izdosh bo'lishga intilishini oshirish maqsadida uning nomi bilan ataluvchi OTM, ijod maktabi, majmua va xiyobon, "Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyi bugun bir hududda jamlandi.




Is'hoqxonto'ra Ibratning kelajakka mustahkam ishonch, millat ruhiyatiga ko'tarinkilik baxsh etuvchi g'oyalari hozir ham amaliy ahamiyatini yo'qotmagan. Olim olamda yuz berayotgan integratsiya jarayonini tubdan anglab, millat bu o'zgarishlarga tayyor turmasa, ilm, xorijiy til va texnikani o'rganmasa, dunyo sahnidagi o'rnini yo'qotib qo'yishi mumkinligini o'sha davrdayoq anglay olgan. Ibrat orzu qilgan intiluvchan, har sohada bilimdon, fidoyi yoshlar esa bugun yurtimizning yorug' kelajagini barpo qilish yo'lida sabot bilan mehnat va ijod qilmoqda.

Xalqimiz, xususan, yoshlarning xorijiy tillar, axborot texnologiyalarini o'zlashtirishi uchun qilinayotgan sa'y-harakatlar aynan Ibrat orzu qilgan kunlarga yetib kelganimiz, Vatanning buyuk istiqboli uchun hozirdan tamal toshi qo'yilayotgani, ayniqsa, bu islohotlar keng ko'lamda olib borilayotganining yaqqol tasdig'idir. Bugungi islohotlar Is'hoqxon Ibratga ehtirom, qolaversa, uning nomi bilan ataluvchi dargohdan mamlakatimiz shuhratini olamga ko'proq tanitadigan, bilim va tafakkuri boy yoshlar yetishib chiqishiga zamin yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi apparati jamoasi O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari kotibiyati mudiri Nodir Do'smatovga onasi

**Oyimxol QODIROVA**ning

vafoti munosabati bilan chuqur ta'ziya izhor etadi.





KUTUBXONA — NURXONA

# MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT O‘CHOG‘I jamiyat hayotining ajralmas qismi

**O‘zbekiston Fanlar akademiyasi tarkibidagi Asosiy kutubxona yurtimizdagi eng yirik ziyo maskanlaridan biri sanaladi. Mana, 90 yildirki, u ilm yo‘lida izlanib, intilgan har bir fuqaroga samarali xizmat ko‘rsatib keladi. Bosib o‘tilgan shonli yillarda ushbu kutubxona ko‘magida minglab fan nomzodlari, fan doktori, professorlar magistr hamda bakalavr darajasidagi chinakam ilm egalari kamol topdi, desak aslo mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Kutubxona direktori Zuhra BERDIYEVA bilan suhbatimiz mazkur dargohning keng qamrovli faoliyatiga bag‘ishlandi.**

**— Zuhra Shukurovna, siz kutubxonashunos va bibliograf sifatida ushbu ziyo maskanida uzoq yillardan buyon faoliyat yuritib kelasiz. Keling, suhbatimizni Fanlar akademiyasi tarkibidagi Asosiy kutubxonaga tamal toshi qo‘yilgan ilk kunlar va qadamlarni eslashdan boshlasak.**

— Fanlar akademiyasi tarkibidagi kutubxona 1933-yil Toshkent shahrida O‘zbekiston Fan qo‘mitasi tarkibida tashkil etilgan va 1943-yilda Fanlar akademiyasi tarkibiga kirgan. O‘sha yildan boshlab, Fundamental kutubxona deb yuritila boshlangan. Dastlab, u o‘sha davr ziyolilari sovg‘a qilgan 39 000 nusxadagi kitobdan iborat fondga ega bo‘lgan. Bugungi kunga kelib, kitoblarimiz 4 millionga yaqinlashdi. Albatta, bu fond o‘z-o‘zidan barpo bo‘lib qolmadi, yillar davomida davlat byudjetidan ajratiladigan mablag‘, homiylar yordami, mualliflarning sovg‘alari, turli loyihalar tufayli boyib keldi. Kutubxona fondida xorijiy tillardagi 600 mingdan ortiq adabiyot ham mavjud.

**— Davr o‘zgarishi, fan-texnika rivoji, odamlarning kitobga, mutolaaga munosabati, qolaversa, yuzaga kelgan shart-sharoit kutubxonalar faoliyatiga ham ta’sir ko‘rsatishi tabiiy. Shu ma’noda, Fundamental kutubxona faoliyati qay darajada o‘zgardi? Nimalar takomillashdi?**

— Istiqlol sharofati bois, mamlakatimiz kutubxonachilik sohasida tub islohotlar yuz berdi. 1994-yildan boshlab yurtimizda birinchilardan bo‘lib kutubxonachilik va bibliografik ish jarayonlarini avtomatlashtirish, Rossiyaning IRBIS dasturi asosida elektron katalog yaratish, raqamlashtirish ishlari aynan ushbu fundamental kutubxona negizida yaratila boshlandi.

Keyinchalik davr taqozosi bilan o‘zbek alifbosi belgisidagi bibliografik yozuv elementlarini kiritishga ehtiyoj paydo bo‘ldi. Ana shu jarayonda malakali ish olib borish, elektron katalogni to‘g‘ri tashkil etishni yo‘lga qo‘yish maqsadida ilmiy-amaliy loyiha doirasida viloyat kutubxonachilarining malakasi oshirildi. Fundamental kutubxona yillar davomida retrospektiv bibliografiya markazi, Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxona esa tavsiya bibliografiyasi bo‘yicha markaz bo‘lib kelgan.



Ko‘plab dolzarb mavzularda retrospektiv bibliografik ko‘rsatkichlar tayyorlab, nashr etdik va bu ish hamon davom etmoqda. Qo‘shni mamlakatlar ilmiy kutubxonalari bilan hamkorlikda ish olib borishga harakat qilyapmiz. Ko‘plab xalqaro anjumanlarda ishtirok etdik, ilmiy nashrlar almashinuvini davom ettiryapmiz.

“Sohamiz fidoyilari” nomli turkum nashrlarni boshlaganmiz. Bu turkumning maqsadi kutubxonachilik, bibliografik va kitobatchilik sohasida faoliyat yuritib kelgan, kelayotgan ustozlarimiz, hamkasblarimiz haqidagi ma’lumotlarni bir joyga yig‘ish, to‘plash, saqlash va yoshlar orasida targ‘ib qilishdan iborat.

**— Bugungi kunda kutubxonaning ilm ahliga ko‘rsatayotgan xizmat darajasi va ilmiy adabiyotlar haqida ham ma’lumot berib o‘tsangiz.**

— Zamon talablaridan kelib chiqib, bizning kutubxona ham kitobxonlarga, ayniqsa, ilmiy xodimlarga samarali xizmat ko‘rsatish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solyapti. Kutubxona saytida ko‘plab ma’lumotlar berib boriladi, barcha ijtimoiy tarmoqlarga ulanganmiz, ularda kutubxona faoliyatiga bog‘liq holda materiallar taqdim etib kelinadi. Elektron katalogni tashkil etish ishi davom etmoqda. Turli yillarda har xil dasturlar asosida ish olib borildi. Hozirgi kunda Janubiy Koreya bilan hamkorlikda mamlakatimizda yaratilayotgan elektron kutubxona jarayonida ham ishtirok etyapmiz. Bu loyihada qatnashayotgan 20 ta yirik kutubxonadan biri sifatida UzNEL dasturi asosida elektron katalog yaratish va bosma nashrlarni raqamlashtirish ishlari jadal olib borilayotir. Muhim ishlarimizdan yana biri, mamlakatimizda birinchi marta O‘zbekiston olimlarining bibliometrik ma’lumotlar bazasi yaratilmoqda. Ushbu bazada 1933-yildan to shu kunga qadar yurtimiz ilm-fanini rivojlantirishda ishtirok etgan ilmiy kadrlar haqida muhim ma’lumotlar to‘planadi.

**— Kutubxonaning kerakli texnik va dasturiy ta’minot bilan qay darajada ta’minlangani haqidagi ma’lumotlar ham kitobxonlar uchun qiziq.**

— Albatta, zamon talabiga mos aholiga kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatish uchun zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari zarur. Busiz bo‘lmaydi. Hozirda kutubxona binosi ta’mirlash jarayonida, ammo xizmat ko‘rsatishni to‘xtatganimiz yo‘q. Xodimlar shu jarayonda ham elektron katalog, Milliy elektron kutubxona yaratishda, Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxona negizida tashkil etilayotgan yig‘ma elektron katalog ishida faol ishtirok etmoqda. Buning uchun 30 ta kompyuter, 1 ta zamonaviy katta skaner, 2 ta planshetli skaner, ko‘p funksiyali 3 ta printer (skaner, nusxa ko‘chirish bilan birga) bilan ta’minlangan. Kutubxonamiz Janubiy Koreya va Germaniya kutubxonalari faoliyatida qo‘llanilayotgan maxsus changyutkichlar, kitoblarni tozalovchi qurilmalar, zamonaviy skanerlar bilan jihozlansa, ishimiz samarasi yanada oshgan bo‘lar edi.

**— Kitob va kitobxonlik va bugungi yoshlarning kitobga munosabati haqidagi mulohazalaringiz bilan o‘rtoqlashsangiz.**

— 2017-yildan boshlab mutolaa madaniyatini va kitobxonlik faoliyatini shakllantirish va tashkil etish borasidagi vazifalarimiz davlat siyosati darajasida e’tiborga olindi. Mutolaa madaniyati, bu — o‘qish uchun maqsadni aniq belgilashdan tortib, o‘qilgan materiallardan shaxsiy hayotda va jamiyat taraqqiyotida unumli foydalanishgacha bo‘lgan jarayonni anglatadi. Shaxsan o‘zim 1978-yildan beri oliy ta’lim tizimida kutubxonachi kadrlar tayyorlash jarayonida qatnashib kelayotganim uchun shuni aniq ayta olamanki, mutolaa madaniyati va kitobxonlik faoliyatini tashkil etish, avvalo, oiladan boshlanadi.





Farzandlarni kitob o‘qishga o‘rgatishda oilaviy muhit juda muhim. Ota-onada kitobga munosabat, mehr-muhabbat qanday bo‘lsa, farzandlarda ham shu xislat rivojlanadi. Janubiy Koreyada shanba, yakshanba ota-onalar uchun kutubxona kunlari bo‘lishi menga juda ma’qul keldi. Ota-onalar shu kunlari emizikli go‘dagidan to 12 yoshgacha bo‘lgan bolalari bilan kunini kutubxonada o‘tkazadi. Buning uchun barcha kerakli sharoit yaratilgan. Bolada kitobga munosabat go‘dakligidanoq shakllantiriladi. Berlin kutubxonalaridan birida esa hali emaklab yurgan bolaning pastki tokchalardan kitob olib onasining oldiga sudrab kelayotganiga guvoh bo‘ldim. Ular uchun alohida maxsus xonalar va hamshiralar ajratilgan. Go‘dak uchun nima zarur bo‘lsa hammasi bor.

Kutubxonamizga Yozuvchilar uyushmasi anchagina kitob ajratdi, G‘.G‘ulom nomidagi NMIU yordam berdi, ayniqsa, mahallada istiqomat qiluvchi keksa olimlar katta tashabbus ko‘rsatdi. Bir necha bog‘chalarda kutubxonalar tashkil etdik. Bundan tashqari, yurtimizning turli hududlaridagi mahalla fuqarolar yig‘inlari, maktab, kollej va litseylar, oliy o‘quv yurtlari huzuridagi kutubxonalar uchun fondimizdagi ortiqcha ilmiy, badiiy-ma’rifiy adabiyotlardan ajratdik.

Uslubiy yordam berish bilan birga, harbiy qismlar kutubxonalarida “Ma’naviyatga yo‘l faqat kitob orqali” mavzusida ma’ruza-taqdimotlar o‘tkazdik. Meni harbiylar orasidagi ijodkor yoshlar, ularning kitob o‘qishga intilishi, qiziqishlari xursand qildi. Yoshlarimizda kitob o‘qishga intilish yaxshi, lekin bunga xalaqit beradigan ayrim masalalarni hal etish zarur. Birinchi galda kitob savdosini tartibga solish kerak. Masalan, bir nomdagi kitob Toshkent shahrining turli joyida katta farq bilan turlicha narxda sotiladi.

Yana bir masala, kutubxonalarga kitob sotib olish uchun mablag‘ni ko‘paytirish zarur. Xorijiy mamlakatlar tajribasiga ko‘ra, kitoblar narxi maqsadga qarab o‘zgaradi: kutubxonalar uchun boshqa narx, sotib oladigan aholi uchun alohida narx. Mutaxassis sifatida meni kutubxonachining mavqei, malakasi, fidoyiligi masalasi ham o‘ylantiradi. Jumladan, soha mutaxassisligi bo‘yicha oliy ta’lim olsa-yu, lekin kutubxonada ishlashdan o‘zini olib qochsa. Axir ziyo tarqatishdek savobli ishga duch kelgan kishini qabul qilib bo‘lmaydi. Kitobxonlar bilan ishlashning ham o‘ziga yarasha sirlari bor.

**— Asosiy kutubxona dunyoning qaysi mamlakatlaridagi kutubxonalar bilan hamkorlik o‘rnatgan?**

— Bugun internet zamoni. Raqamlashtirilgan yoki elektron shaklga o‘tkazilgan audio kitoblar ommalashdi, lekin ular kitobning o‘rnini bosolmaydi. Kitobxonlarimizning deyarli 80-90 foizi baribir bosma nashrlarni so‘rab murojaat qiladi. Qo‘shni mamlakatlar fundamental kutubxonalari bilan avvaldan ilmiy adabiyotlar almashinuvi mavjud. Biz qator mamlakatlar kutubxonalari bilan ilmiy-tadqiqot institutlarining ilmiy jurnallari, nashrlarini almashib turamiz.

**— Kelgusidagi yangi loyihalar, rejalar va qanday yangiliklar ko‘zda tutilmoqda?**

— Rejalarimiz ko‘p. Kutubxonamiz ta’mirdan chiqqandan keyin olima ayollar xotirjam ilmiy faoliyat bilan mashg‘ul bo‘lishiga yordam beradigan, jumladan, kitoblar mutolaasi paytida go‘dak farzandlariga qarab turadigan, ustozlar-shogirdlar birgalikda ishlaydigan alohida sharoitga ega xonalar tashkil etish niyatimiz bor.

Men xorijiy mamalakatlar kutubxonalari faoliyati bilan tanishganimda ko‘nglimga navbat bilan xizmat ko‘rsatish ishini tashkil etishni tugib qo‘ygan edim. Buni ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi kitobxonlarimiz yaxshi tushunadi. Olimlarning ayrimlari kechki payt, kechasi yoki tong mahali ilmiy ish bilan band bo‘ladi. To‘g‘ri, bunga oilaviy sharoit har doim ham imkon bermaydi. Biz esa ertalab 8.00 dan kechki 17.00 ga qadar xizmat ko‘rsatamiz. Ya’ni ish vaqtimiz ularga uncha mos kelmaydi. Mana shunday barcha uchun birday maqbul keladigan jihatlarni amalga tatbiq qilish bo‘yicha ham ilg‘or xorij tajribasini o‘rganish, o‘zimizga qulay holda moslashtirib joriy etish vaqti keldi.

O‘zbekistonda hozirga qadar na kitobatchilik, na kutubxonachilik ishi, na bibliografiyashunoslik ensiklopediyalari tayyorlanmagan, nashr qilinmagan. Rossiyada “Knigovedeniye”, “Bibliotechnoye delo” nomli qomusiy nashrlar mavjud. Biz talabalar bilan mashg‘ulotlarda ana shu nashrlardan foydalanamiz. Bu kabi manbalar o‘zimizda ham yaratilishi, ularni yosh avlod mutolaa qilishi, foydalanishi ham ilmiy, ham tarixiy ahamiyatga ega.

**O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti Davronbek ORIPOV suhbatlashdi.**

YOZ — O‘TMOQDA SOZ

# MEHR ULASHAYOTGAN “Mehrjon”



**Yoz — bolalarning eng sevimli fasli. Boisi, bog‘larda mevalar g‘arq pishadi. Tilni yorar shaftoli-yu o‘rik, olma tanga quvvat bag‘ishlaydi. Qolaversa, uch oylik ta’til maroqli hordiq chiqarish uchun ajoyib imkoniyat.**



Yurtimizda jajji avlodning sog‘lom va ma’nan yetuk kamol topishi uchun ko‘plab xayrli ishlar yo‘lga qo‘yilgan. Har bir bolaning vaqti unumli o‘tishini ta’minlashga qaratilgan maxsus rejalar tasdiqlangan. Xususan, yozda ham farzandlarimiz ta’lim-tarbiyadan uzilmaydi, oromgohlarga yo‘l oladi. Do‘stlar orttiradi, bilim va ko‘nikmasini oshiradi.

Chust tumani G‘ova qishlog‘idagi “Mehrjon” bolalar sog‘lomlashtirish oromgohi ayni damda o‘quvchilar bilan gavjum. Salkam 11 milliard so‘m sarflanib, sobiq Mehribonlik uyi o‘rnida qad rostlagan mazkur zamonaviy oromgoh purviqor tog‘larning xushhavo hududida joylashgan.

Hozir uchinchi mavsumda 120 nafar o‘g‘il-qizning dam olishi mazmunli kechishi uchun oromgohda barcha zarur qulayliklar yaratilgan. “Mohir qo‘llar”, “Yosh rassomlar”, ingliz tili va sport to‘garaklari ular ixtiyorida. Bir-biridan qiziqarli tadbirlar, musobaqalar uyushtirilmoqda. Alohida qiziqish uyg‘otgan “Talantlar tanlovi”da “Eng yaxshi rassom”, “Eng yaxshi sportchi”, “Eng yaxshi qo‘shiqchi”, “Eng faol kitobxon” nominatsiyalari bo‘yicha g‘oliblar aniqlandi. Voleybol, futbol, stol tennisi, shaxmat-shashka bo‘yicha bellashuvlar bolalarni chiniqtirib, salomatligini yanada mustahkamlashga yordam bermoqda.

Bosh tarbiyachi Murodxon Isoqovning aytishicha, O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi Namangan viloyati kengashi turli loyihalar o‘tkazish, faollarni rag‘batlantirish, dam oluvchilar xavfsizligini ta’minlash, oziq-ovqat va taomlar sifatini nazorat qilishga yaqindan ko‘maklashmoqda. Oromgohda har kuni aniq reja asosida muayyan mavzu yuzasidan tadbir tashkil etiladi. “O‘zbekiston — muqaddas diyor”, “Bilimli yoshlar — yurt tayanchi”, “Kitob — ma’rifat chirog‘i” kabi ma’naviy-ma’rifiy uchrashuv va suhbatlar, bahs-munozaralar turli yoshdagi bolalarning tafakkurini boyitishga xizmat qilyapti.

— G‘ovaning osmono‘par tog‘lari, sharqirab oqayotgan zilol suvlari, maysalarga uchib qo‘nayotgan kapalaklarni ko‘rgan kishi beixtiyor qo‘liga qalam olib, rasm chizgisi keladi, — deydi “Tinchlik” mahalla fuqarolar yig‘ini yoshlar yetakchisi Otabek Qobilov. — Maftunkor G‘ova ona tabiat mo‘jizasidir, uning betakror go‘zalligi har qanday kishini o‘ziga rom aylaydi.

To‘garak rahbari Nurillo Oripovning yoshlar orasida musiqa san’ati va madaniyatini rivojlantirish, ular ongiga milliy qo‘shiqlarni singdirishdagi sa’y-harakatlari e’tiborimizni tortdi. So‘z va kuy uyg‘unligida yaralgan o‘lmas taronalarni tinglash va jonli ijro etishning ruhiyatga ijobiy ta’sirini, ahamiyatini ta’kidlashdan hech charchamaydi.



— Bu yilgi mavsumning to‘rt mavsumida 500 nafardan ziyod bolani har jihatdan sog‘lomlashtirish ko‘zda tutilgan. Bugunga qadar 360 nafar bolajon uyiga xursand holda qaytdi. 5 ta muhim tashabbus doirasida to‘garaklarimiz muntazam ishlab turibdi, tadbirlar, ko‘plab tanlovlar tashkillashtirilmoqda, — deydi oromgoh direktori Jamshidbek Ibrohimov. — 11 nafar tajribali tarbiyachi, murabbiy va yetakchi mashg‘ulotlarni sifatli va esda qolarli tarzda o‘tkazyapti.

Oromgohda sport maydonchalari va cho‘milish havzasi bor. Konsertlar, musobaqalar, sayohatlar va boshqa jarayonlar muassasa shifokori va hamshiralari, biriktirilgan mas’ullarning qat’iy nazoratida. O‘quvchilarning samimiy fikrlarini eshitdik, taassurotlari bir olam.

G‘ova qishlog‘idagi 12-umumta’lim maktabining 6-sinf o‘quvchisi Odinaxon Mahmudova fayzli go‘sha va atrofidagi manzaralarni ijod namunalari orqali tasvirlashga intiladi. U sharoitlardan, ustozlaridan behad minnatdor. Mazali va shifobaxsh taomlar, yangi dugonalar diydoridan mamnunligini uning kayfiyati yuqoriligidan bilish mumkin.

Shodon o‘g‘il-qizlarning kulgisi yangrayotgan so‘lim ayvonchada ozgina o‘tirsangiz, bahri dilingiz ochiladi, yengil shabadadan tanangiz yayraydi. Bolalarga beminnat mehr ulashayotgan go‘zal va so‘lim “Mehrjon”dan qaytar ekanmiz, yurt kelajagi — bolajonlar hamisha davlatimiz e’tiborida ekaniga guvoh bo‘ldik.

**Orifjon JO‘RAYEV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DUK

MUASSIS: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir: Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
**Nashr indeksi** — 236. **Buyurtma** G-846.
43690 nusxada bosildi.
**Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Nodir Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz: 100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko‘chasi, 32-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Topshirildi — 03:15